Biz determinantlarni hisoblashda muhim vositachi vazifasini bajaruvchi determinantlarni tartibini pasaytirib hisoblash metodi bo'lib, unda bosh rolni minor va algebraik to'ldiruvchi tushunchalari o'ynaydi.

$n-$nchi tartibli kvadratik

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1k} & a_{1k+1} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2k} & a_{2k+1} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{k1} & a_{k2} & \dots & a_{kk} & a_{kk+1} & \dots & a_{kn} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{k+1,1} & a_{k+1,2} & & a_{k+1,k} & a_{k+1,k+1} & \dots & a_{k+1,n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} & a_{nk+1} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix}$$

matrisa berilgan bo'lsin. Bu matrisani ixtiyoriy k ta satr va k ustunlarining kesishgan (o'chirilgan) joylaridan k-nchi tartibli determinant tuzib olamiz. Hosil bo'lgan determinantga $|A|$ determinantning k-nchi tartibli minori deyiladi.

Xususan, determinantda bitta satr va bitta ustunni ($k=1$) kesishgan joyida bitta element bo'ladi, ya'ni determinantning elementlari ham minorlar bo'lishi mumkin. O'chirilmay qolgan elementlaridan tuzilgan determinant $(n-k)$ tartibli determinant bo'lib, unga minorning to'ldiruvchi minori deyiladi. Minor va to'ldiruvchi minorlarni qulaylik uchun M va $\overline{M}$ lar bilan belgilab olamiz. Shuni ta'kidlaymizki, M va $\overline{M}$ determinantlar bir-birini o'zaro to'ldiruvchi minorlar juftligi deb ham ataladi. Xususan, determinantning $i-$nchi satr va $j-$nchi ustunini kesishmasida turgan a_{ij} element birinchi tartibli va uning o'chirilmay qolgan elementlaridan tuzilgan to'ldiruvchi minor $(n-1)$ tartibli minor bo'lib, ular birgalikda o'zaro to'ldiruvchi minorlar juftini tashkil qiladi.

Agar $k-$tartibli M minor $i_1, i_2, \dots, i_k$ satr va $j_1, j_2, \dots, j_k$ ustunlarining kesishmasidan tuzilgan bo'lsa, u holda

$$\overline{A} = (-1)^{S_M}\ \overline{M},$$

bu yerda $S_M = (i_1 + i_2 + ... + i_k) + (j_1 + j_2 + ... + j_k)$ M minorning algebraik to'ldiruvchi deyiladi.

Matrisaning bosh diagonalida joylashgan

$$|a_{11}|, \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix}, ..., \begin{vmatrix} a_{11} & ... & a_{1k} \\ ... & ... & ... \\ a_{k1} & ... & a_{kk} \end{vmatrix}$$

va hokazolar, xususan $|A|$ ning o'ziga bosh minorlar deb ataladi.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

- Uchunchi tartibli determinantlar qanday xisoblanadi.
- Minor deb nimaga aytiladi.
- Algebraik to'ldiruvchi deb nimaga aytiladi.

1.3.2-b. Blits-so'rov uchun savollar

1. Uchunchi tartibli determinantni nechta 2 tartibli minor bor.
2. Matrisa bilan determenantning farqi nimada.

1.3.2-v. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Uchunchi tartibli determinantlarni 2- tartibli bosh minorini ko'sating.
2. Kvadrat matrisa deb nimaga aytiladi.

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xarakterdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

$$1)\begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 3 & 1 & 2 \\ 4 & -2 & 1 \end{vmatrix} \quad 2)\begin{vmatrix} 0{,}15 & 0{,}25 & 0{,}35 \\ 3 & 4 & -2 \\ 0{,}45 & 0{,}5 & 0{,}55 \end{vmatrix} \quad 3)\begin{vmatrix} -1 & 3 & 3 \\ 2 & 1 & -2 \\ 3 & 2 & 1 \end{vmatrix} \quad 6)\begin{vmatrix} 2 & 2 & 3 \\ 3 & -4 & 2 \\ 4 & 5 & -3 \end{vmatrix}$$

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1) $\begin{cases} 2x - 3y + z = -2 \\ 4x - y + 3z = 6 \\ x - 5y - 4z = 0 \end{cases}$ ni xisoblang a) (1,1,-1); b) (2,2,3); c)(1,-1,-2); d)(2,0,2)

2) $\begin{cases} x - 2y + 4z = 5 \\ 3x - 4y - 3z = 0 \\ 3x - y + 5z = 8 \end{cases}$ ni xisoblang a) (1,0,1); b) (-2,2,-3); c)(-1,0,-2); d)(-2,3,2)

3) $\begin{cases} x+y+z=3 \\ x-y+z=2 \\ 2x+3y-5y=0 \end{cases}$ ni xisoblang a) (1,1,1); b) (-2,0,3); c)(0,0,-2); d)(2,3,2)

4) $\begin{cases} x+y+z=5 \\ x-y+z=1 \\ 2x-y+2z=4 \end{cases}$ ni xisoblang a) (2,2,1); b) (2,-2,3); c)(1,0,-2); d)(3,3,2)

1.3.5. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

16. Kostrikin A.I. Vvedeniye v algebru. M., 1977, 495 str.
17. Kurosh A.G. Oliy algebra kursi. Toshkent, 1972.
18. Faddeyev D.K. Leksii po algebre. M., Nauka, 1984, 415 st.
19. Gelfand I.M. Chizikli algebradan leksiyalar. Toshkent, 1966.
20. Faddeyev D.K., Faddeyeva V.N. Vычislitelныye metodы lineynoy algebrы. M., Nauka, 1964, 388 s.
21. Proskuryakov I.V. Sbornik zadach po lineynoy algebre. M., Nauka, 1977.
22. Faddeyev D.K., Sominskiy I.S. Sbornik zadach po vыsshey algebre. M., Nauka, 1977.
23. Sbornik zadach po algebre pod redaksiyey. A.I. Kostrikina, M., Nauka, 1985.

Qo'shincha adabiyotlar

24. Yukori tartibli determinantlarni xisoblashga doir metodik kursatma. Samarkand, SamDU nashri, 1988.
25. Xojiyev J., Faynleb A.S. Algebra va sonlar nazariyasi kursi, Toshkent, «Uzbekiston», 2001.
26. Isroilov M.I., Soleyev A.S. Sonlar nazariyasi. – Toshkent, «Fan», 2003.
27. Narzullayev U.X., Soleyev A.S. Algebra i teoriya chisel. I-II chast, Samarkand, 2002.
28. Determinantlar nazariyasi. «Algebra va sonlar nazariyasi» fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun uslubiy tavsiyalar. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2011. – 56 bet.Matrisalar algebrasi. «Algebra va sonlar nazariyasi» fanidan amaliy mashg'ulotlar.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:
  Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
  Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
  Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
  Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 3. Uch nomalumli birjinslimas teglamalar sistemasi.

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Analitik geometriya va chiziqli algebra

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

5. Uch nomalumli birjinslimas teglamalar sistemasi,
6. Uch nomalumli birjinslimas teglamalar sistemasi yechishninig Kramer qoidasi.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, teglamalar sistemasi va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

Задачи учебного занятия:

- *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Uch nomalumli birjinslimas teglamalar sistemasi terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; Uch nomalumli birjinslimas teglamalar sistemasini yechishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; 3-tartibli determinantlar. Minor va algebraik to'ldiruvchilarning matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar stemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik dabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Oily matematika doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, oily matematika fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Uch nomalumli birjinslimas teglamalar sistemasi.

o Uch nomalumli birjinslimas teglamalar sistemasi yechishninig Kramer qoidasi.

Kalit so'zlar: tenglama, sistema, noma'lum son, bir jinsli.

1.3.1. Ma`ruza matni

Uchinchi tartibli tenglamalar sistemasini

$$\begin{aligned} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + a_{13}x_3 &= b_1, \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + a_{23}x_3 &= b_2, \\ a_{31}x_1 + a_{32}x_2 + a_{33}x_3 &= b_3 \end{aligned} \qquad \textbf{(1)}$$

yechish uchun biz uchinchi tartibli determinant tushunchasini kiritamiz. Agar

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{23} & a_{33} \end{pmatrix} \qquad \textbf{(2)}$$

(1) tenglamalar sistemasining noma'lumlar oldidagi koeffisiyentlaridan tuzilgan uchinchi tartibli asosiy kvadratik matrisasi bo'lsa, ushbu

$$\begin{aligned} & a_{11}a_{22}a_{33} + a_{13}a_{21}a_{32} + a_{12}a_{23}a_{31} - \\ & -a_{13}a_{22}a_{31} - a_{11}a_{23}a_{32} - a_{12}a_{21}a_{33} \in P \end{aligned}$$

elementga (songa) A matrisaning determinanti deyiladi va $\det A,\ |A|,\ \Delta,\ d$ yoki

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} \qquad \textbf{(3)}$$

ko'rinishlarda belgilanib olinadi. Determinantni qiymatini hisoblash yig'indiga qarab, quyidagi uchburchak usuli yoki Sarryus jadvali deb nomlangan qoida yordamida bajariladi:

	
+	–

Bu yerdagi (+) jadvalda determinantning musbat ishorali hadlari olinish qoidasi va (-) jadvalda determinantning manfiy ishorali hadlari olinish qoidasidir.

Teorema. (1) sistema $\Delta \neq 0$ da yagona

$$x_1^0 = \frac{\Delta_1}{\Delta},\ x_2^0 = \frac{\Delta_2}{\Delta},\ x_3^0 = \frac{\Delta_3}{\Delta}$$

yechimga ega, bu yerda

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix},\ \Delta_1 = \begin{vmatrix} b_1 & a_{12} & a_{13} \\ b_2 & a_{22} & a_{23} \\ b_3 & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix},\ \Delta_2 = \begin{vmatrix} a_{11} & b_1 & a_{13} \\ a_{21} & b_2 & a_{23} \\ a_{31} & b_3 & a_{33} \end{vmatrix},$$

$$\Delta_3 = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & b_1 \\ a_{21} & a_{22} & b_2 \\ a_{31} & a_{32} & b_3 \end{vmatrix}.$$

Isbot. Agar (1) sistemaning birinchi tenglamasini har ikkala tomonini

$$\begin{vmatrix} a_{22} & a_{23} \\ a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = a_{22}a_{33} - a_{23}a_{32}$$

ga, ikkinchisini

$$-\begin{vmatrix} a_{12} & a_{13} \\ a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = a_{13}a_{32} - a_{12}a_{33}$$

ga, uchinchisini

$$\begin{vmatrix} a_{12} & a_{13} \\ a_{22} & a_{23} \end{vmatrix} = a_{12}a_{23} - a_{13}a_{22}$$

ga ko’paytirib va ularni qo’shsak, $\Delta x_1 = \Delta_1$ hosil qilamiz. Xuddi shunday birinchi tenglamani

$$-\begin{vmatrix} a_{21} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} \end{vmatrix} = a_{23}a_{31} - a_{21}a_{32}$$

ga, ikkinchisini

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{13} \\ a_{31} & a_{33} \end{vmatrix} = a_{11}a_{33} - a_{13}a_{31}$$

ga, uchinchisini

$$-\begin{vmatrix} a_{11} & a_{13} \\ a_{21} & a_{23} \end{vmatrix} = a_{13}a_{21} - a_{11}a_{23}$$

ga ko'paytirib, qo'shsak $\Delta x_2 = \Delta_2$ tenglik hosil bo'ladi va nihoyat, birinchi tenglamani

$$\begin{vmatrix} a_{21} & a_{22} \\ a_{31} & a_{32} \end{vmatrix} = a_{21}a_{32} - a_{22}a_{31}$$

ga, ikkinchisini

$$-\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{31} & a_{31} \end{vmatrix} = a_{12}a_{31} - a_{11}a_{31}$$

ga, uchinchisini

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22} - a_{12}a_{21}$$

ga ko'paytirsak va ularni qo'shsak, $\Delta x_3 = \Delta_3$ tenglikni hosil qilamiz. Olingan tengliklarga asosan

$$x_1 = \frac{\Delta_1}{\Delta},\ x_2 = \frac{\Delta_2}{\Delta},\ x_3 = \frac{\Delta_3}{\Delta} \qquad \textbf{(4)}$$

yechimlarni topamiz. Ikkinchi tomondan (4) qiymatlarni (1) ga olib borib qo'yilsa, uni qanoatlantirishi bevosita tekshiriladi. Bu (1) va (4) tenglamalar sistemalarini ekvivalent (teng kuchli) ekanligini va demak

$$x_1^0 = \frac{\Delta_1}{\Delta},\ x_2^0 = \frac{\Delta_2}{\Delta},\ x_3^0 = \frac{\Delta_3}{\Delta} \qquad \textbf{(5)}$$

qiymatlar (1) sistemaning yechimi ekanligini ko'rsatadi. (5) formuladagi topilgan yechimga Kramer qoidasi bilan hosil bo'lgan yechim deb ataladi.

Ko'p holda Δ determinantga (1) sistemaning asosiy determinanti, Δ_1, Δ_2, Δ_3 determinantlarga (1) tenglamalar sistemasining yordamchi determinantlari deb ham yuritiladi.

Misol. 2. Ushbu

$$\begin{aligned} x_1 + 2x_2 + 2x_3 &= 3, \\ 2x_1 + 5x_2 + 2x_3 &= 0, \\ x_1 + x_2 + 3x_3 &= 7 \end{aligned}$$

sistemani yechish uchun noma'lumlar oldidagi koeffisiyentlardan

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 2 \\ 2 & 5 & 2 \\ 1 & 1 & 3 \end{pmatrix}$$

matrisani tuzib olamiz va bu matrisaning determinantni hisoblaymiz:

$$\Delta = \begin{vmatrix} 1 & 2 & 2 \\ 2 & 5 & 2 \\ 2 & 1 & 3 \end{vmatrix} = 15 + 4 + 4 - 10 - 2 - 12 = -1 \neq 0.$$

Endi yordamchi determinantlarni hisoblaymiz:

$$\Delta_1 = \begin{vmatrix} 3 & 2 & 2 \\ 0 & 5 & 2 \\ 7 & 1 & 3 \end{vmatrix} = -3, \ \Delta_2 = \begin{vmatrix} 1 & 3 & 2 \\ 2 & 0 & 2 \\ 1 & 7 & 3 \end{vmatrix} = 2, \ \Delta_3 = \begin{vmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 5 & 0 \\ 1 & 1 & 7 \end{vmatrix} = -2$$

va demak

$$x_1^0 = \frac{\Delta_1}{\Delta} = 3, \ x_2^0 = \frac{\Delta_2}{\Delta} = -2, \ x_3^0 = \frac{\Delta_3}{\Delta} = 2$$

sistemaning yechimi bo'ladi.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. 3- tartibli determinant qanday hisoblanadi.
2. Tenglamalar sitemasini yechishda asosiy determinant nol bo'lib qolsa nima bo'ladi.

1.3.2-б. Blits-so'rov uchun savollar

1. Teglamalar sistemasining umumiy yechimi nima.

1.3.2-в. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Teglamalar sistemasini yechimiyana qaysi usul bilan xisoblab topiladi..

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xarakterdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

$$\begin{cases} 2x_1 + 3x_2 + 4x_3 = 9 \\ \quad 4x_2 + 11x_3 = 1 \\ 7x_1 - 5x_2 = -1 \end{cases} \qquad 2)\begin{cases} 2x_1 - x_2 + 5x_3 = 27 \\ 5x_1 + 2x_2 + 13x_3 = 70 \\ 3x_1 - x_3 = -2 \end{cases}$$

$$3)\begin{cases} 3x_1 - 5x_2 + 4x_3 = 46 \\ x_1 + 2x_2 + x_3 = 8 \\ x_1 - 7x_2 - 2x_3 = 5 \end{cases} \qquad 4)\begin{cases} 4x_1 + x_2 - 3x_3 = -1 \\ 8x_1 + 3x_2 - 6x_3 = -1 \\ x_1 + x_2 - x_3 = -1 \end{cases}$$

$$5)\begin{cases} x_1 - 4x_2 - 2x_3 = 0 \\ 3x_1 - 5x_2 - 6x_3 = 21 \\ 3x_1 + x_2 + x_3 = -4 \end{cases} \qquad 6)\begin{cases} 4x_1 - 3x_2 + x_3 = 43 \\ x_1 + x_2 - x_3 = 3 \\ 2x_1 + x_2 = 13 \end{cases}$$

$$7)\begin{cases} 3x_1 + x_2 - 2x_3 = 6 \\ 5x_1 - 3x_2 + 2x_3 = -4 \\ 4x_1 - 2x_2 - 3x_3 = -2 \end{cases} \qquad 8)\begin{cases} 3x_1 + x_2 + 2x_3 = 11 \\ 2x_1 + 2x_2 - 3x_3 = 9 \\ x_1 - 5x_2 - 8x_3 = 23 \end{cases}$$

$$9)\begin{cases}5x_1+6x_2-2x_3=12\\2x_1+5x_2-3x_3=9\\4x_1-3x_2+2x_3=-15\end{cases}\qquad 10)\begin{cases}2x_1+3x_2+4x_3=15\\x_1+x_2-5x_3=16\\3x_1-2x_2+x_3=1\end{cases}$$

1.3.4. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

29. Кострикин А.И. Введение в алгебру. М., 1977, 495 стр.
30. Курош А.Г. Олий алгебра курси. Тошкент, 1972.
31. Фаддеев Д.К. Лекции по алгебре. М., Наука, 1984, 415 ст.
32. Гельфанд И.М. Чизикли алгебрадан лекциялар. Тошкент, 1966.
33. Фаддеев Д.К., Фаддеева В.Н. Вычислительные методы линейной алгебры. М., Наука, 1964, 388 с.
34. Проскуряков И.В. Сборник задач по линейной алгебре. М., Наука, 1977.
35. Фаддеев Д.К., Соминский И.С. Сборник задач по высшей алгебре. М., Наука, 1977.
36. Сборник задач по алгебре под редакцией. А.И. Кострикина, М., Наука, 1985.

Qo'shincha adabiyotlar

37. Юкори тартибли детерминантларни хисоблашга доир методик курсатма. Самарканд, СамДУ нашри, 1988.
38. Хожиев Ж., Файнлеб А.С. Алгебра ва сонлар назарияси курси, Тошкент, «Узбекистон», 2001.
39. Исроилов М.И., Солеев А.С. Сонлар назарияси. – Тошкент, «Фан», 2003.
40. Нарзуллаев У.Х., Солеев А.С. Алгебра и теория чисел. I-II часть, Самарканд, 2002.
41. Determinantlar nazariyasi. «Algebra va sonlar nazariyasi» fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun uslubiy tavsiyalar. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2011. – 56 bet.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:

Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 4. Yuqori tartibli determinant va uning xossalari

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Analitik geometriya va chiziqli algebra

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

7. Yuqori tartibli determinant va uning xossalari.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, determinant va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

Задачи учебного занятия:

- *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; determinant iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; determinantlarni hisobshda matematik simvollarning husisiyatlari bilan tanishtirish;
- *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; husisiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
- *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; determinantlarning matematik-

komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar stemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik dabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Oily matematika doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini  beradi, oily matematika fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);

- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Yuqori tartibli determinant va uning xossalari.

Kalit so'zlar: satr, ustun, transponirlash, ishora.

1.3.1. Ma`ruza matni

Bizga n -tartibli kvadratik

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix}$$

a_{ij}, $i = \overline{1,n}$, $j = \overline{1,n}$ matrisa berilgan bo'lsin.

Bu matrisaning ixtiyoriy satr va ustunidan bittadan olingan n ta elementlarining ko'paytmasini qaraymiz:

$$a_{1\alpha_1} \cdot a_{2\alpha_2} \cdot \ldots \cdot a_{n\alpha_n}$$

ko'paytmaning ko'paytuvchilaridagi indekslaridan

$$\alpha = \begin{pmatrix} 1 & 2 & \dots & n \\ \alpha_1 & \alpha_2 & \dots & \alpha_n \end{pmatrix}$$

o'rniga qo'yishni tuzib olamiz (bu yerda qulaylik uchun o'rniga qo'yishni f bilan emas balkim α bilan belgilab olamiz) va aksincha har bir $n-$tartibli o'rniga qo'yishlarda matrisadan shunday ko'paytmani mos qilib qo'yishimiz mumkin. Ko'paytmani ishorasini o'rniga qo'yishni signaturasi bilan aniqlaymiz, ya'ni

$$sign\alpha = (-1)^{inv\alpha}$$

va quyidagi ko'paytmani hosil qilamiz:

$$sign\alpha \cdot a_{1\alpha_1} \cdot a_{2\alpha_2} \cdot \ldots \cdot a_{n\alpha_n}.$$

Hamma o'rniga qo'yishlar soni $n!$ bo'lganligi tufayli, shunday tuzilgan ko'paytmalarning soni ham $n!$ ta bo'ladi va bularning hammasini yig'indisini olamiz:

$$\sum_{\alpha\in S_n} sign\alpha \cdot a_{1\alpha_1} \cdot a_{1\alpha_2} \cdot \ldots \cdot a_{n\alpha_n} \qquad (1)$$

hosil bo'lgan yig'indiga berilgan $n-$tartibli matrisaning determinanti deyiladi va biz uni quyidagi $\det A,\ |A|$ belgilar yoki Δ, d, D harflar orqali ifodalaymiz. Shunday qilib, determinantni belgilar nuqtai nazaridan quyidagicha yozib olishimiz mumkin:

$$|A| = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & \ldots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \ldots & a_{2n} \\ .. & \ldots & \ldots & \ldots \\ a_{n1} & a_{n2} & \ldots & a_{nn} \end{vmatrix} = \sum_{\alpha\in S_n} sign\alpha a_{1\alpha_1} \cdot a_{2\alpha_2} \cdot \ldots \cdot a_{n\alpha_n} \qquad (2)$$

Agar (2) ifodada $n = 1, 2, 3$ deb olsak, mos ravishda quyidagi ifodalarni olamiz:

$$\det(a_{11}) = a_{11}, \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22} - a_{12}a_{21}$$

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22}a_{33} + a_{13}a_{21}a_{32} + a_{12}a_{23}a_{31} -$$

$$- a_{12}a_{21}a_{33} - a_{11}a_{23}a_{32} - a_{13}a_{22}a_{31}$$

Masalan, uchinchi tartibli determinantning to'rtinchi ko'paytmasini olsak, unga $\begin{pmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 3 & 2 & 1 \end{pmatrix}$ uchinchi tartibli o'rniga qo'yig mos qo'yilgan bo'lib, bu o'rniga qo'yishni inversiyasi 3 ga tengdir va demak ko'paytma manfiy ishora bilan yig'indisi ishtirok etadi.

Bu ifodalar $n-$tartibli determinant 2-va 3-tartibli determinantlarning umumlashmasi ekanligini ko'rsatadi.

Endi determinantlar o'rganishda asosiy vazifalarni bajaruvchi xossalarni keltiramiz.

Xossa 1. Matrisani transponirlash natijasida, ya'ni satrlarini ustun qilib yozilgan, uni qiymati o'zgarmaydi.

Isbot. Haqiqatan, ta'rifga asosan satr va ustunlardan bittadan olingan, transponirlangan matrisada ustun va satrlarda bittadan olinadi va demak yig'indidagi har bir ko'paytma ham o'zgarmay qolaveradi, lekin uning ishorasini aniqlovchi o'rniga qo'yish

$$a_{\alpha_{1_1}} \cdot a_{\alpha_{2_2}} \cdot \ldots \cdot a_{\alpha_{2_n}}$$

ga asosan

$$\alpha^{-1} = \begin{pmatrix} \alpha_1 & \alpha_2 & \ldots & \alpha_n \\ 1 & 2 & \ldots & n \end{pmatrix}$$

o'rniga qo'yishdan, ya'ni α o'rniga qo'yishga teskari o'rniga qo'yishdan iborat bo'lib, ularning signaturalari

$$sign\alpha = sign\alpha^{-1}$$

tengdir va demak hosil bo'lgan ko'paytma bir xil ishora bilan ham keladi. Shunday qilib, agar

$$A^t = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{21} & a_{n1} \\ a_{12} & a_{22} & a_{n2} \\ \ldots & \ldots. & \ldots. \\ a_{1n} & a_{2n} & a_{nn} \end{pmatrix}$$

A matrisaning transponirlash bo'lsa, u holda

$$|A| = |A^t|$$

bo'lar ekan.

Ushbu xossaga binoan determinantlarning qolgan xossalarini faqat satrlari uchun ta'riflaymiz va isbotlaymiz.

Quyidagi ikki xossalar determinantning istalgan satrlari bo'yicha chiziqli ekanligini anglatadi.

Xossa 2. Agar determinantning biror satri ikkita qo'shiluvchilardan iborat bo'lsa, u holda bu determinant satrlari shu qo'shiluvchilardan iborat bo'lgan ikkita determinantning yig'indisidan iborat bo'ladi.

Bu xossani quyidagi formulaviy shaklda yozilishi so'z bilan aytilishidan oydinroq bo'ladi:

$$a = \begin{vmatrix} a_{11} & \ldots & a_{1n} \\ \ldots & \ldots. & \ldots \\ b_{i1} + c_{i1} & \ldots. & b_{in} + c_{in} \\ \ldots & \ldots. & \ldots \\ a_{1n} & \ldots. & a_{nn} \end{vmatrix} =$$

$$= \begin{vmatrix} a_{11} & \ldots & a_{1n} \\ \ldots & \ldots. & \ldots \\ b_{i1} & \ldots. & b_{in} \\ \ldots & \ldots. & \ldots \\ a_{1n} & \ldots. & a_{nn} \end{vmatrix} + \begin{vmatrix} a_{11} & \ldots & a_{1n} \\ \ldots & \ldots. & \ldots \\ c_{i1} & \ldots. & c_{in} \\ \ldots & \ldots. & \ldots \\ a_{1n} & \ldots. & a_{nn} \end{vmatrix}$$

Isbot.

$$\Delta = \sum_{\alpha \in S_n} sign\alpha \cdot a_{1\alpha_1} \dots \left(b_{i\alpha_i} + c_{i\alpha_i} \right) \dots a_{n\alpha_n} =$$
$$= \sum_{\alpha \in S_n} sign\alpha \cdot a_{1\alpha_1} .. b_{i\alpha_i} \dots a_{n\alpha_n} + \sum_{\alpha \in S_n} sign\alpha \cdot a_{1\alpha_1} .. c_{i\alpha_i} \dots a_{n\alpha_n}$$

bo'lib, birinchi yig'indi

$$\begin{vmatrix} a_{11} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots. & \dots \\ b_{i1} & \dots. & b_{in} \\ \dots & \dots. & \dots \\ a_{1n} & \dots. & a_{nn} \end{vmatrix}$$

ga, ikkinchi yig'indi

$$\begin{vmatrix} a_{11} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots. & \dots \\ c_{i1} & \dots. & c_{in} \\ \dots & \dots. & \dots \\ a_{1n} & \dots. & a_{nn} \end{vmatrix}$$

ga teng bo'ladi.

Isbotlangan xossa determinantning satri bir nechta qo'shiluvchilar bo'lgan holda ham o'rinlidir.

Xossa 3. Agar determinantning biror-bir satri umumiy ko'paytuvchiga ega bo'lsa, u holda bu umumiy ko'paytuvchini determinant belgisidan tashqariga chiqarib yozish mumkin, ya'ni

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots. & \dots \\ ka_{i1} & \dots. & ka_{in} \\ \dots & \dots. & \dots \\ a_{1n} & \dots. & a_{nn} \end{vmatrix} = k \begin{vmatrix} a_{11} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots. & \dots \\ a_{i1} & \dots. & a_{in} \\ \dots & \dots. & \dots \\ a_{1n} & \dots. & a_{nn} \end{vmatrix}.$$

Isbot. Haqiqatan,

$$\Delta=\sum_{\alpha\in S_n} sign\alpha\cdot a_{1\alpha_1}..ka_{i\alpha_i}...a_{n\alpha_n}=$$

$$=k\sum_{\alpha\in S_n} sign\alpha\cdot a_{1\alpha_1}...a_{i\alpha_i}...a_{n\alpha_n}=$$

$$=k\begin{vmatrix} a_{11} & ... & a_{1n} \\ ... & .... & ... \\ a_{i1} & .... & a_{in} \\ ... & .... & ... \\ a_{1n} & .... & a_{nn} \end{vmatrix}$$

Xossa 4. Agar determinantning biror satri nollardan iborat bo'lsa, u holda determinant nolga teng bo'ladi.

Isbot. Haqiqatan, ta'rifga asosan yig'indidagi har bir ko'paytmadan shu satrdan albatta bitta element, ya'ni nol qatnashadi va demak ko'paytma nolga va ularning yig'indisi bo'lgan determinant ham nolga tengdir.

Xossa 5. Determinantning ixtiyoriy ikkita satrlarini o'rnini almashtirish natijasida uning faqat ishorasigina o'zgaradi, ya'ni

$$\Delta=\begin{vmatrix} a_{11} & ... & a_{1n} \\ .. & ... & ... \\ a_{i1} & ... & a_{in} \\ ... & ... & ... \\ a_{j1} & ... & a_{jn} \\ ... & ... & ... \\ a_{n1} & ... & a_{nn} \end{vmatrix}=-\begin{vmatrix} a_{11} & ... & a_{1n} \\ .. & ... & ... \\ a_{j1} & ... & a_{jn} \\ ... & ... & ... \\ a_{i1} & ... & a_{in} \\ ... & ... & ... \\ a_{n1} & ... & a_{nn} \end{vmatrix}=-\Delta'.$$

Isbot. Agar $a_{1\alpha_1}...a_{i\alpha_i}...a_{j\alpha_j}...$ birinchi determinant umumiy hadi bo'lsa, satrlar almashtirishlarda hosil bo'lgan determinantning umumiy hadi

$$a_{1\alpha_1}...a_{j\alpha_j}...a_{i\alpha_i}...a_{n\alpha_n}$$

bo'ladi. Bu hadlarga oid o'rniga qo'yishlarni qarasak:

$$\begin{pmatrix} 1 & ... & i & ... & j & ... & n \\ \alpha_1 & ... & \alpha_i & ... & \alpha_j & ... & \alpha_n \end{pmatrix} \text{ va } \begin{pmatrix} 1 & ... & j & ... & i & ... & n \\ \alpha_1 & ... & \alpha_j & ... & \alpha_i & ... & \alpha_n \end{pmatrix}$$

larning ishorasi bir-biriga qarama-qarshi bo'ladi, $\alpha_1,...,\alpha_i,...,\alpha_j,...,\alpha_n$ o'rin almashtirishlarni $i-$nchi va $j-$nchi elementlarini o'rinlarini almashtirish (tranpozisiyalash) natijasida ularning signaturasi qarama-qarshi ishora bilan o'zgaradi. Shunday qilib, determinantlarning umumiy hadlari qarama-qarshi ishora bilan va demak determinantni o'zlari bir-biriga qarshi ishorali bo'ladi.

Bu xossadan to'g'ridan-to'g'ri quyidagi xossani hosil qilamiz:

Xossa 6. Bir xil satrlarga ega bo'lgan determinant nolga teng.

Isbot. Faraz qilaylik, determinant ikkita $i-$nchi va $j-$nchi satrlari teng bo'lsin. U holda oldingi xossaga asosan bu satrlarni o'rinlarini almashtirish natijasi unga ishorasi qarama-qarshi bo'lgan determinantni hosil qilamiz va ular aynan tengdir, ya'ni $\Delta = -\Delta$ bo'lib, bundan

$$2\Delta = 0,\ \Delta = 0$$

hosil bo'ladi.

Shuni ta'kidlaymizki, $2\Delta = 0$ dan hamma vaqt ham $\Delta = 0$ kelib chiqaveradi. Buning uchun P maydon nol xarakteristikali yoki maydon kengaytmasi bo'lgan halqa nol xarakteristikali halqa bo'lishi kerak.

3- xossa va 6- xossalardan quyidagi xossani hosil qilamiz:

Xossa 7. Proporsional satrlarga ega bo'lgan determinant nolga teng.

Isbot.

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & \dots & a_{1n} \\ .. & \dots & \dots \\ a_{i1} & \dots & a_{in} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{j1} & \dots & a_{jn} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix}$$

determinantda $i-$nchi va $j-$nchi satrlar proporsional bo'lsin, ya'ni qandaydir k element uchun

$$a_{j1} = ka_{i1},\ \dots, a_{jn} = ka_{i1}$$

o'rinli bo'lsin. U holda $j-$nchi satrlardan k ni determinant belgisidan tashqariga chiqarsak, hosil bo'lgan determinantning $i-$nchi va $j-$nchi satrlari bir xil bo'ladi va demak bu determinant nolga teng.

Xossa 8. Agar determinantning biror satri qolgan satrlarining chiziqli kombinasiyasidan iborat bo'lsa, u holda determinant nolga teng bo'ladi.

Isbot. Faraz qilaylik, determinantning i satri $i_1, i_2, \dots, i_j$ $-$nchi satrlarining chiziqli kombinasiyasidan iborat bo'lsin, ya'ni $\exists\lambda_i,\ i = \overline{1,s}$

$$a_{ij} = \lambda_1 a_{i_1 j} + \lambda_2 a_{i_2 j} + \dots + \lambda_s a_{i_s j},\ \ j = \overline{1,n}.$$

U holda determinant 2- xossaga asosan yig'indilarga yoyib, bu yig'indi hadlardan 3- xossaga asosan $\lambda_1, \lambda_2, \dots, \lambda_s$ chiqaramiz va natijada yig'indi hadli determinantlarda satrlari bir xil determinantlar bo'lib, xossa 21.6. asosan ularning hammasi nollarga teng bo'ladi.

Endi biz determinantlarni hisoblashda muhim ahamiyat ega bo'lgan oxirgi xossani keltiramiz.

Xossa 9. Agar determinantning biror satrini biror-bir λ elementga ko'paytirib, boshqa bir satriga qo'shsak, uning qiymati o'zgarmaydi.

Isbot. Determinantni $i-$nchi satrini λ ga ko'paytirib, $j-$nchi satriga qo'shamiz:

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{i1} & \dots & a_{in} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{j1} & \dots & a_{jn} \\ \dots & \dots & \dots. \\ a_{n1} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix}$$

determinantdan

$$\Delta' = \begin{vmatrix} a_{11} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{i1} & \dots & a_{in} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{j_1} + \lambda a_{i1} & \dots & a_{jn} + \lambda a_{in} \\ \dots & \dots & \dots. \\ a_{n1} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix} =$$

$$\begin{vmatrix} a_{11} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{i1} & \dots & a_{in} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{j_1} & \dots & a_{jn} \\ \dots & \dots & \dots. \\ a_{n1} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix} + \lambda \begin{vmatrix} a_{11} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{i1} & \dots & a_{in} \\ \dots & \dots & \dots \\ a_{i_1} & \dots & a_{in} \\ \dots & \dots & \dots. \\ a_{n1} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix} = \Delta + \lambda \cdot 0 = \Delta.$$

Bizga $n-$nchi tartibli determinant berilgan bo'lsin. 9- xossadan foydalanib, bu determinantda yetarlicha nollar paydo qilishimiz mumkin (II tip elementlar almashtirish kabi!) va natijada determinant, ya'ni yig'indini hisoblashni ancha yengillashtiramiz va agarda biz determinantning 5- xossadan foydalansak (I tip elementar almashtirishlar kabi) biz determinant uchbrchaksimon shakli yoki zinapoyali (trapesiyasimon) shaklga olib kelamiz. Ikkinchi holat bo'yicha determinant nolga teng bo'ladi, chunki nolli satrlar hosil bo'ladi, agarda determinant uchburchaksimon shaklga, ya'ni

$$\Delta' = \pm \begin{vmatrix} a'_{11} & a'_{12} & \dots & a'_{1n} \\ 0 & a'_{22} & \dots & a'_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & a'_{nn} \end{vmatrix}, \ a'_{11} \neq 0, \ a'_{22} \neq 0, \dots, a'_{nn} \neq 0$$

ko'rinishni olsa, u holdan determinant to'g'ridan to'g'ri foydalangan holda

$$\Delta' = \pm a'_{11} a'_{22} ... a'_{nn}$$

hosil qilamiz.

Misol. Ushbu determinantni determinantlarni xossalaridan foydalanib, hisoblaymiz:

$$\begin{vmatrix} 2 & 2 & -1 \\ 4 & 3 & 4 \\ 6 & 3 & 4 \end{vmatrix} = 2\begin{vmatrix} 1 & 2 & -1 \\ 2 & 3 & 4 \\ 3 & 3 & 4 \end{vmatrix} =$$

$$= 2\begin{vmatrix} 1 & 2 & -1 \\ 0 & -1 & 6 \\ 0 & -3 & 7 \end{vmatrix} = 2\begin{vmatrix} 1 & 2 & -1 \\ 0 & -1 & 6 \\ 0 & -3 & 7 \end{vmatrix} = 2\begin{vmatrix} 1 & 2 & -1 \\ 0 & -1 & 6 \\ 0 & 0 & 11 \end{vmatrix} = 2\left(1\cdot(-1)\cdot(-11)\right) = 22$$

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Determinantlarning 1-2- xossalari nimalardan iborat.
2. Determinantlarning-4- xossalari nimalardan iborat.

1.3.2-б. Blits-so'rov uchun savollar

1.3.2-в. Og'zaki so'rov uchun savollar

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xarakterdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

42. Кострикин А.И. Введение в алгебру. М., 1977, 495 стр.
43. Курош А.Г. Олий алгебра курси. Тошкент, 1972.
44. Фаддеев Д.К. Лекции по алгебре. М., Наука, 1984, 415 ст.
45. Гельфанд И.М. Чизикли алгебрадан лекциялар. Тошкент, 1966.
46. Фаддеев Д.К., Фаддеева В.Н. Вычислительные методы линейной алгебры. М., Наука, 1964, 388 с.
47. Проскуряков И.В. Сборник задач по линейной алгебре. М., Наука, 1977.
48. Фаддеев Д.К., Соминский И.С. Сборник задач по высшей алгебре. М., Наука, 1977.
49. Сборник задач по алгебре под редакцией. А.И. Кострикина, М., Наука, 1985.

Qo'shincha adabiyotlar

50. Юкори тартибли детерминантларни хисоблашга доир методик курсатма. Самарканд, СамДУ нашри, 1988.
51. Хожиев Ж., Файнлеб А.С. Алгебра ва сонлар назарияси курси, Тошкент, «Узбекистон», 2001.
52. Исроилов М.И., Солеев А.С. Сонлар назарияси. – Тошкент, «Фан», 2003.
53. Нарзуллаев У.Х., Солеев А.С. Алгебра и теория чисел. I-II часть, Самарканд, 2002.
54. Determinantlar nazariyasi. «Algebra va sonlar nazariyasi» fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun uslubiy tavsiyalar. . Uslubiy qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2011. – 56 bet.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:

Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 5. Tog'ri chiziqda, tekislikda va fazoda koordinatalar sistemasini kiritish. Qutb koordinatalar sistemasi va koordinatalarni almashtirish.

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Analitik geometriya va chiziqli algebra

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

8. Tog'ri chiziqda, tekislikda va fazoda koordinatalar sistemasi.
9. Qutb koordinatalar sistemasi va koordinatalarni almashtirish.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, koordinatalar sistemasi va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'ulot vazifasi:

- *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; fanning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish; fanni o'ganishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini  beradi, oily matematika fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);

- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Vektorlarning vektor ko'paytmasi .
2. Vektorlarning aralash ko'paytmasi.

Kalit so'zlar: o'ng va chap sistema, .

1.3.1. Ma`ruza matni

Ikki ***a, b*** vektorni bir-biriga skalyar ko'paytirish natijasida son (skalyar) hosil bo'lishini biz ko'rdik.

a, b vektorning bir-biriga ko'paytirish natijasida vektor hosil bo'lishi mumkin.

Ikki ***a, b*** vektorning vektorial ko'paytmasi deb shunday ***c*** vektorga aytiladiki, bu vektor ***a, b*** vektorlarga perpendikulyar bo'lib, uning moduli ***a, b*** vektorlardan yasalgan parallelogramm yuziga teng, ***c*** vektorning ***c*** uchidan qaraganda ***c*** vektor atrofida ***a*** vektordan ***b*** vektorga eng kichik burchak bilan aylanishi soat strelkasiga teskari bo'lishi kerak.



a vektor bilan ***b*** vektorning vektorial ko'paytmasi $a \times b$ yoki $[ab]$ shaklda yoziladi va ***a*** bilan ***b*** vektorning vektorial ko'paytmasi deb o'qiladi. Ta'rifga ko'ra bu ko'paytma

$$c = [ab]$$

Bu vektorning uzunligi ***a*** va ***b*** vektorlardan yasalgan parallelogrammning yuziga teng, ya'ni

$$c = \left\|[ab]\right\| = ab\sin(a \wedge b)$$

bundan

$$a \wedge b < \pi$$

Bu tenglikdan ***a*** vektor bilan ***b*** vektor kolleniar bo'lganida yoki bu vektorlarning kamida bittasi nol, vektorial bo'lgan holdagina ***a, b*** ning vektorial ko'paytmasi nolga teng bo'lishi ravshan ko'rinmoqda. Haqiqatan, agar $a \| b$ bo'lsa ***a^b=0*** va $\sin(a \wedge b) = 0$, bu holda

$$c = ab\sin 0^\circ = abO = 0$$

Agar ***a=0*** yoki ***b=0*** bo'lsa, aytilgan xossa ravshan. Aksincha, agar

$$c = ab\sin(a \wedge b) = 0$$

bo'lsa, bundan yo

$$\sin(a \wedge b) = 0; \quad a \| b$$

yo ***a=0*** yoki ***b=0*** bo'lishi chiqadi.

Agar ***a*** vektor bilan ***b*** vektor o'zaro perpendikulyar bo'lsa, u holda ular vektor ko'paytmasining son qiymatlari ko'paytmasiga teng chunki bu holda *sin**(a,b)**=1* bo'ladi.

Hususiy holda

[ij]=k, [jk]=i, [ki]=j.



Vektorial ko'paytma quyidagi qonunlarga bo'ysunadi:

1. *Vektorial ko'paytmadagi ko'paytuvchilar o'rnini almashtirsa, vektorial ko'paytma (-1) ga ko'payadi;*

[ab]=-[ba]

Haqiqatan, agar ***a, b*** vektorial bir-biriga kollinear bo'lsa, ***[ab]=0, [ba]=0,*** bu holda ***[ab]=-[ba].***

Endi ***a, b*** vektorial bir-biriga kollinear emas deb faraz qilaylik. Bu holda ikki vektorning vektorial ko'paytmasi ta'rifiga ko'ra ***[ab]*** hamda ***[ba]*** vektorlarning son qiymati ***a*** va ***b*** vektorlardan yasalgan parallelogrammning yuziga teng bo'lgani uchun bir xil; ikki vektorning vektorial ko'paytmasini tasvirlovchi vektorial yo'nalishini aniqlash shartiga ko'ra ***[ab]*** va ***[ba]*** vektorlar bir-biriga qarama-qarshi yo'nalgan. Demak,

[ab]=-[ba].

2. *Skalyar ko'paytuvchiga nisbatan vektorial ko'paytma qonuniga bo'ysinadi,* ya'ni

$$[a\lambda, b] = [a, \lambda b] = \lambda[a, b]$$

Haqiqatan **a** va **b** vektroni λ ga ko'paytirish **a** va **b** vektorlardan yasalgan parallelogrammning **a** yoki **b** tomonini λ marta "cho'zish" demakdir. Bu esa parallelogramm yuzining λ marta "kattalashganini" bildiradi.

3. ***a, b*** *vektorlar yig'indisi bilan* ***c*** *vektorning vektorial ko'paytmasi taqsimot qonuniga bo'ysunadi,* ya'ni

[(a+b)c]=[ab]+[bc]

Haqiqatan ham ***c*** nol vektorial bo'lsa, bu tenglikning bajarilishi ravshan. Shuning uchun $c \neq 0$ deb faraz qilamiz. Bu holda $c = c \times c^{\circ}$ deb yozish mumkin.

a, b *va* c° vektorlarning umumiy ***O*** nuqtaga keltiramiz hamda c° vektorga perpendikulyar ***q*** tekislik o'tkazamiz. ***a, b*** vektorlardan parallelogramm chizib, ***a+b*** yig'indi vektorni topamiz.

Endi ***a*** hamda $a + b = \vec{Od}$ vektorlarning ***q*** tekislikka proyeksiyalarini olamiz.

$$\Pi P_q a = Oa_1, \quad \Pi P_q (a+b) = Od_1$$

$\vec{Oa_1}$ va $\vec{Od_1}$ vektorlarni ***O*** nuqta atrofida soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha 90° buramiz. Natijada $\vec{Oa_1}$ vektorial ***q*** tekislikdagi $\vec{Oa_2}$ vektorning $\vec{Od_1}$ vektorni umumiy ***O*** nuqtaga keltiramiz hamda c° vektorga perpendikulyar ***q*** tekislik o'tkazamiz. ***a, b*** vektorlardan parallelogramm chizib, ***a+b*** yig'indi vektorni topamiz.

Endi ***a*** hamda $a + b = \vec{Od}$ vektorlarning ***q*** tekislikka proyeksiyalarini olamiz.

$$\Pi P_q a = Oa_1, \quad \Pi P_q (a+b) = Od_1,$$

$\vec{Oa_1}$ va $\vec{Od_1}$ vektorlarni ***O*** nuqta atrofida soat strelkasi yo'nalishi bo'yicha 90° buramiz. Natijada $\vec{Oa_1}$ vektorial ***q*** tekislikdagi $\vec{Oa_2}$ vektorning, $\vec{Od_1}$ vektorial esa $\vec{Od_2}$ vektorning vaziyatini olib ularning uzunliklari o'zaro teng bo'ladi.

$$Oa_2 = Oa_1, \quad Od_2 = Od_1$$

Agar $\vec{Oa}$ bilan c° orasidagi burchakni φ bilan belgilasak,

$$Oa_2 = Oa_1 = Oa\cos(90^{\circ} - \varphi) = Oa\sin\varphi = [ac^{\circ}]$$

chunki $\vec{Oa_2}$ vektorial $[ac^{\circ}]$ vektorial ko'paytma ta'rifining shartlarining qanoatlantiradi; uch perpendikulyar haqidagi teoremaga asosan:

$$\angle a_2Oc^{\circ} = \angle a_2Oa = \frac{\pi}{2}$$

shuning uchun $\vec{Oa_2}$ vektorial $\vec{Oa}$, $\vec{Oc^{\circ}}$ vektorlar tekisligiga perpendikulyar va a_2 dan qaraganda ***a*** dan c° ga eng kichik burchak bilan burulish soat strelkasiga teskari yo'nalishda bo'ladi. Shunday qilib $\vec{Oa_2} = [ac^{\circ}]$. Shunga o'xshash

$$\vec{Od_2} = [dc^{\circ}] = [(a+b)c^{\circ}] \qquad \vec{a_2d_2} = [ad\,c^{\circ}] = [bc^{\circ}]$$

Ammo shakldan

$$\overrightarrow{Od_2} = \overrightarrow{Oa_2} + \overrightarrow{ad_2}$$

ekanini ko'ramiz, ya'ni

$$[(a+b)c^\circ] = [ac^\circ] + [bc^\circ]$$

bu tenglikning ikkala tomonini c skalyarga ko'paytiramiz:

$$[(a+b)cc^\circ] = [ac^\circ c] + [bc^\circ c]$$

[(a+b)c]=[ac]+[bc]

taqsimot qonunining to'g'ri ekani isbot bo'ldi. Shunga o'xshash

[c(a+b)]=[ca]+[cb]

ekanini isbot qilish qiyin emas.

Faraz qilaylik, kishi oyog'i bilan yuqoriga aytilgan parallelogramm tekisligi ustida tikka turgan holda uning boshi haligi ***c*** vektor tomonidan bo'lsin. Bu holda ***a*** va ***b*** vektorlar orasidagi burchakning bissektrisasi qaralsa, ***a*** vektor uning o'ng tomonida va ***b*** vektor chap tomonida bo'ladi yoki ***a*** yo'nalishdan ***b*** yo'nalishiga qarab (eng qisqa yo'l bilan) aylantirilsa, bu harakat soat strelkasining yurish harakatiga teskari bo'lib ko'rinadi. Bunday sistema o'ng sistema deyiladi.

1-misol:

$\bar{a}$ *va* $\bar{b}$ *o'zaro perpendikulyar.* $|a| = 3;\ \ |b| = 4 \quad |[(a+b)(a-b)]| = ?$

$$|[(a+b)(a-b)]| = |a+b||a-b|\sin((a+b)^\wedge(a-b))$$

$$\begin{cases} |a+b| = x^2 \\ |a-b| = x^2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} a^2 + 2ab + b^2 = x^2 \\ a^2 - 2ab + b^2 = x^2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 9 + 16 = x^2 \\ 9 + 16 = x^2 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} |x| = 5 \\ |x| = 5 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} |a+b| = 5 \\ |a-b| = 5 \end{cases}$$

$$\begin{cases} S = ab \\ S = \dfrac{d^2}{2}\sin\varphi \end{cases} \qquad ab = \frac{d^2}{2}\sin\varphi \qquad 12 = \frac{25}{2}\sin\varphi \qquad \sin\varphi = \frac{24}{25}$$

$$|[(a+b)(a-b)]| = |a+b||a-b|\sin((a+b)^\wedge(a-b)) = 25\cdot\frac{24}{25} = 24$$

2-misol:

$\bar{a}$ *va* $\bar{b}$ *vektor* $\varphi = \frac{2}{3}\pi$ *burchakni hosil qiladi.* $|a| = 1 \quad |b| = 2 \quad [ab]^2 = ?$

$$[ab]^2 = a^2 \cdot b^2 \cdot \sin^2\varphi = 1\cdot 4\cdot\frac{3}{4} = 3$$

3-misol:

$a=\{3,-1,-2\}$

$b=\{20,4,28\}$

$[(2a-b)(2a+b)]=?$

$\begin{cases}2a-b=c\\2a+b=d\end{cases}$ $\quad \bar{c}=2(3,-1,-2)-(1,2,-1)=\{5,-4,-3\}$

$$\bar{d}=2(3,-1,-2)+(1,2,-1)=\{7,0,-5\}$$

$$[cd]=\left\{\begin{vmatrix}-4 & -3\\0 & -5\end{vmatrix}-\begin{vmatrix}5 & -3\\7 & -5\end{vmatrix}\cdot\begin{vmatrix}5 & -4\\7 & 0\end{vmatrix}\right\}=\{20,4,28\}$$

$[(2a-b)(2a+b)]=[cd]=\{20,4,28\}$

4-misol:

$A=(2,-1,2)\quad B(1,2,-1)\quad C(3,2,1)$

$[\overline{AB}\cdot\overline{BC}]=?$

$\overline{AB}=c\qquad \overline{BC}=d\qquad [\overline{AB}\cdot\overline{BC}]=[cd]=\left\{\begin{vmatrix}3 & -3\\0 & 2\end{vmatrix}-\begin{vmatrix}-1 & -3\\2 & 2\end{vmatrix}\cdot\begin{vmatrix}-1 & 3\\2 & 0\end{vmatrix}\right\}=\{6,-4,-6\}$

$c=\{-1,3,-3\}$

$d=\{2,0,2\}$

5-misol:

$\bar{P}=\{3,2,-4\}\qquad \bar{Q}=\{2,-1,1\}$

$$[PQ]=\begin{vmatrix}2 & -4\\-1 & 1\end{vmatrix}-\begin{vmatrix}3 & -4\\2 & 1\end{vmatrix}\cdot\begin{vmatrix}3 & 2\\2 & -1\end{vmatrix}=(2,11,7)$$

Ixtiyoriy **a, b**, **c** vektorlar berilgan bo’lsin. Agar **a** vektorni **b** vektorga vektorial ko’paytirish natijasida hosil bo’lgan [**ab**] vektor **c** vektorga skalyar ko’paytirilsa, **a**,**b** va **c** vektorlarning *aralash ko’paytma*si deb atalgan [**a, b**]**c** son hosil bo’ladi.

[**a**,**b**]**c** aralash ko’paytma, agar berilgan **a**, **b** va **s** uchlik o’ng bo’lsa, musbat ishora bilan, aks holda, manfiy ishora bilan, boshlari umumiy nuqtaga keltirilgan **a**, **b** va **s** vektorlarga qurilgan parallelpipedning hajmiga teng. Ko’rinib turibdiki, agar **a**, **b**, **c** komplanar bo’lsa, ularning aralash ko’paytmasi nolga teng. Osongina ko’rinib turibdiki, [**a**,**b**]**c**=**a**[**b**,**c**], chunki har ikki son kattaligi bo’yicha bir xil parallelepipedning hajmiga teng va ikkala uchlik bir xil yo’nalishli, ya’ni ikkalasi ham o’ng, yoki chap bo’lsa.

Shuning uchun **a**, **b** va **c** vektorlarning aralash ko’paytmasi aynan qaysi ikkita vektor vektorial ko’paytirilayotganligi (birinchi ikkitasi yoki oxirgi ikkitasi) ko’rsatilmasdan oddiy **abc** ko’rinishda yoziladi.

Uchta vektor komplanarligining yetarli va zaruriy sharti ularning aralash ko’paytmasi nolga tengligidir.

Agar **a**, **b** va **c** vektorlar o’zlarining to’g’ri burchakli dekart koordinatalari **a**=$\{x_1; y_1; z_1\}$, **b**=$\{x_2; y_2; z_2\}$, **c**=$\{x_3; y_3; z_3\}$ bilan aniqlangan bo’lsa, ularning aralash ko’paytmasi **abc** satrlari mos ravishda ko’paytirilayotgan vektorlarning koordinatalari (komponentalari) dan iborat determinantga teng, ya’ni

$$\textbf{abc}=\begin{vmatrix}x_1 & y_1 & z_1\\x_2 & y_2 & z_2\\x_3 & y_3 & z_3\end{vmatrix}.$$

Haqiqatan, $\left[a,b\right]=\left\{y_1z_2-y_2z_1;z_1x_2-z_2x_1;z_1y_2-z_2y_1;\right\}$ va **s**={x_3; y_3; z_3} ekanligidan **[*ab*]** va **s** vektorlarning **[*a b*]*c*** skalyar ko'paytmasi

$$\left[a,b\right]\cdot c=abc=x_3(y_1z_2-y_2z_1)+y_3(z_1x_2-z_2x_1)+z_3(x_1y_2-x_2y_1)$$

ga teng. Demak, **a**={x_1; y_1; z_1}, **b**={x_2; y_2; z_2}, **c**={x_3; y_3; z_3} vektorlarning komplanarligining yetarli va zaruriy sharti quyidagicha:

$$\begin{vmatrix} x_1 & y_1 & z_1 \\ x_2 & y_2 & z_2 \\ x_3 & y_3 & z_3 \end{vmatrix}=0.$$

Agar **b** vektorni **c** vektorga vektorial ko'paytirish natijasida hosil bo'lgan vektor **a** vektorga yana vektorial ko'paytrilsa, hosil bo'lgan [**a** [**bc**]] vektor *ikki karrali vektorial* ko'paytma deyiladi. Ixtiyoriy **a**, **b** va **c** vektorlar uchun quyidagi formula o'rinli:

[***a*** [***b***, ***c***]]=***b***(***ac***)-***c***(***ab***).

Bu formulani isbot qilish uchun to'g'ri burchakli dekart koordinatalar sistemasini quyidagicha tanlab olamiz: bu vektorlar boshlarini umumiy nuqtaga – koordinatalar boshi O ga keltirilganda *Oz* o'q **c** vektor bo'ylab yo'nalgan, *Oy* o'q esa **b** va **c** vektorlar bilan aniqlangan tekislikda joylashgan bo'lsin. U holda, ko'rinib turibdiki, **a,b,c** quyidagi koordinatalarga ega bo'ladi: **a**={x_1; y_1; z_1}, **b**={*o*; y_2; z_2}, **s**={*o*; *o*; z_3}. [**bc**]={y_2z_3;*o*;*o*;} va xuddi shu formuladan [**a**[**bc**]]={*o*;$z_1y_2z_3$;-$y_1y_2z_3$} tenglikka ega bo'lamiz. Boshqa tarafdan, ko'rinib turibdiki, **ac**=z_1z_3, **ab**=y_1y_2+z_1z_2, shuning uchun **b**(**ac**)={*o*;$y_2z_1z_3$; $z_2z_1z_3$}, c(**ab**)={*o*;*o*;$y_1y_2z_3$+$z_1z_2z_3$}. Bu tengliklarni solishtirib,

[***a*** [***b***, ***c***]]=***b***(***ac***)-***c***(***ab***) tenglikni osongina hosil qilamiz.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Vektor deb nimaga aytiladi?
2. Vektorlarni qanday ko'paytmalarini bilasiz?
3. Chap va o'ng sistemalar nima?

1.3.2-б. Blits-so'rov uchun savollar

1. Koordinatalari bilan berilgan vektorlarning vektorial ko'paytmasini qanday hisoblash mumkin?
2. Ikki vektorning vektor ko'paytmasi va u qanday xossalarga ega?
3. Vektorlarni aralash ko'paytmasi?

1.3.2-в. Og'zaki so'rov uchun savollar

4. Vektor uzunligi?
5. Ikki vektorning vektor ko'paytmasi?
6. Vektor ko'paytmaning xossalari?
7. Vektorlaning aralash ko'paytmasi?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;

- *ilmiy xarakterdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. Vilenkin N.Ya. va boshš. Matematika. –M.: Prosвещyeniye. 1985.
2. Rajabov F., Nurmetov A. Analitik geometriya va chizišli algebra. –T.: O'qituvchi. 1990.
3.A.V.Pogorelov. Analitik geometriya. –T.: Œšituvchi. 1983.
4.Shneyder, A.I. Sluskiy, A.S.Shumov. Kratkiy kurs vishiey matematiki. –M.: Visshaya shkola. 1972.
5.Ilin V.I., Poznyak E.G. Analiticheskaya geometriya. –M.: Nauka. 1988.
6.Ibroximov M. Matematikadan masalalar tœplami. –T.: Œšituvchi 1994.

Qo'shincha adabiyotlar

7.Šabulov V.Š. Rašamli avtomatlar, algoritmlar. –T.: Œšituvchi, 1980.
8.Vlenkin N.Ya. Zadachnik-praktikum po matematike. –M.: Prosвещyeniye. 1977.
9.Ochilova X., Nazarov N. Geometriyadan masalalar tœplami. –T.: Œšituvchi, 1983.
10. Shodiyev T. Analitik geometriyadan šœllanma. –T.: Œšituvchi, 1973.
11. Postushenko A.S. Vысщaya matematika. –M.: Vысщaya shkola, 2002.
12. Beklemishev D.V. Kurs analiticheskoy geometrii i lininoy algebrы. –M.: Fizmatlit, 2000.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:

Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 11. To'g'ri chiziqning burchak koeffisientli, umumiy, normal tenglamalari va ular orasidagi munosabatlar.

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Analitik geometriya va chiziqli algebra

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

22. To'g'ri chiziqning burchak koeffisientli tenglamasi.
23. To'g'ri chiziqning umumiy tenglamalasi.
24. To'g'ri chiziqning normal tenglamasi.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, vektorlar va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'uloti vazifasi:

13. *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Analitik geometriya va chiziqli algebra fanning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish fanni o'ganishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
14. *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
15. *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; fanning matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;

- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar stemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik dabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Oily matematika doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, oily matematika fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;

- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. To'g'ri chiziqning burchak koeffisientli tenglamasi.
2. To'g'ri chiziqning umumiy tenglamalasi.
3. To'g'ri chiziqning normal tenglamasi.

Kalit so'zlar: To'g'ri chiziq, burchak koeffisient, umumiy normal.

1.3.1. Ma`ruza matni

To`g`ri chiziqning burchak koeffitsentili tenglamasi

1. O`tgan bobda $f\ (x, y) = 0$ tenglamaning dekart koordinatalariga nisbatan, umuman, biror chiziq ifoda qilishini ko`rsatgan edik. Endi faraz qilaylik,

$$f\ (x, y)=Ax + By + C$$

ya`ni birinchi darajali tenglamasi bo`lsin (bunda A , B , C koeffitsentlari o`zgarmas, aniq sonlardan iborat).

Buning dekart sistemasida to`g`ri chiziq ifoda qilishini va aksincha to`g`ri chiziqni dekart kordinatlariga nisbatan shunung kabi birinchi darajali tenglama bilan ifoda qilishini ko`rsatamiz.

Buning uchun, eng avval, qo`yilgan masalaning ikkinchi qismi bo`lgan ushbu teoremani isbot qilamiz.

Teorema. *Tekislikdagi to`g`ri chiziq dekart koordinatalariga nisbatan birinchi darajali tenglama bilan ifoda qilinadi, ya`ni to`g`ri chiziq – birinchi tartibli chiziqdan iborat.*

To`g`ri chiziqning kordinata o`qlariga nisbatan o`rni turlicha bo`lib, xususiy hollarda u kordinata o`qlariga parallel bo`lishi mumkin. Eng avval faraz qilaylik, $xOy$ t o`g`iburchakli sistemada $y$ o`qiga parallel bo`lmagan biror $AB$ to`g`ri chiziq berilgan bo`lsin.



Agar AB to`g`ri chiziqning absissa o`qi bilan tashkil etgan burchaklaridan biri va uning ordinate o`qidan kesgan OR parchasi ma`lum bo`lsa, bu holda AB to`g`ri chiziqning koordinata o`qlariga nisbatan o`rni aniq bo`ladi. Odatda haligi burchaklardan $AB$ ni absissa o`qining musbat yo`nalishi bilan tashkil etgan α burchagi qabul qilinadi. Faraz qilaylik, shu miqdorlar bizga berilgan va

$$OR = l, \quad \angle xQB = \alpha$$

bo`lsin. To`g`ri chiziqda istalgancha biror *M* nuqtani olib, uning o`zgaruvchi kordinatalarini *x* va *y* faraz qilamiz,
ya`ni:

$$x = OP, \quad y = PM$$

R nuqtadan absissa o`qiga parallel qolib chiziq o`tkazilsa, buning natijasida *MRS* to`g`ri burchakli uchburchak hosil bo`ladi. Bunda

$$SM = RS\ tg\ \alpha\ ,$$

Shaklga muofiq

$$SM = PM - PS = PM - OR = y - l;$$
$$PS = OP = x$$

Bular (1) tenflikka qo`yilsa,

$$y - l = x\ tg\ \alpha\ ,$$

yoki

$$y = x\ tg\ \alpha\ + l$$

α burchagi bizga berilgan edi. Shuning uchun tg α ham ma`lum; agar

$$tg\ \alpha = k \tag{2}$$

faraz qilinsa, tenglamaning odatdagi ko`rinishi bunday bo`ladi:

$$\boxed{y = kx + l} \tag{3}$$

AB to`g`ri chiziqdagi ***M*** nuqta uning qayerida bo`lsa-da, bu tenglama o`z kuchini saqlaydi, chunki u nuqta ***AB*** da ixtiyoriy edi. Shuning uchun (3) tenglama ***AB*** to`g`ri chiziqning tenlamasi bo`ladi.

(3) tenglamada 4 miqdor qatnashadi: ***x, y, k*** va ***l***. Bulardan avvalgii ikkitasi op`zgaruvchi va keyingi ikkitasi o`zgarmas. To`g`ri chiziqning o`rnini aniqlovchi ***k*** va ***l*** miqdorlar **parametr** deyiladi. Bulardan birinchisi (k) – to`g`ri chiziqning burchak koeffitsenti deyiladi; uning geometric ma`nosi yuqorida aytilgan: u to`g`ri chiziqning absissa oqining musbat yo`nalishi bilan tashkil qilingan $\alpha$ burchakning tangensidan iborat edi. Parametrlardan ikkinchisi bo`lgan ***l*** – tog`ri chiziqning ordinate o`qidan kesgan parchasini ifoda qiladi.

Xususiy holda, ya`ni ***AB*** to`g`ri chiziq ***x*** o`qiga parallel bo`lganda ***k = 0*** va aksincha ***k = 0*** bo`lganda to`g`ri chiziq ***x*** oqiga parallel bo`ladi va bu holda (3) ga asosan to`g`ri chiziqning tenglamasi

$$y = l \tag{4}$$

bo`ladi. Endi faraz qilaylik, to`g`ri chiziq ***y*** o`qiga parallel bo`lsin va uning ***x*** o`qi bilan kesishgan ***A*** nuqtasining absissasi α bo`lsin. Bu holda chiziqdagi har bir nuqtaning absissasi *a* bo`ladi (va aksincha), ya`nib u holda to`g`ri chiziqning tenglamasi

$$x = a$$

bo`ladi. Shuning bilan, dekart kordinatalariga nisbatan (3), (4) va (4’) ning ning har biri birinchi darajali tenglamalardan iborat bo`ladi.
Bu esa teoremaning to`g`riligini, ya`ni tekislikdagi to`g`ri chiziqning birinchi tartibli ekanligini ko`rsatadi.

2. Bu erda shuni ta`kidlab o`tish kerakki, to`g`ri chiziqning

$\boldsymbol{y = kx + l}$ (5)

tenglamasidagi *k va l* parametrlar algebraic miqdorlardan iborat bo`lib, to`g`ri chiziqning kordinata o`qlariga qarab, ularning ikkalasi musbat yoki ikkalasi manfiy bo`lishi biri yoki ikkalasi nolga aylanishi mumkin. Lekin qanday bo`lmasin, ***k*** va ***l*** ning har bir haqiqiy qiymatiga tekislikda bir chiziq to`g`ri keladi. Masalan:



1) Agar ***k*** musbat son bo`lsa, bu holda $\alpha < 90^\circ$ .bo`ladi, chunki ***k = tg*** α edi. Demak, bu holda to`g`ri chiziq abscissa o`qining musbat yo`nalishi bilan o`tkir burchak tashkil qiladi.

Agar ***k*** manfiy son bo`lsa , u holda $\alpha > 90^\circ$ . Demak, bu holda to`g`ri chiziq abscissa o`qining musbat yo`nalishi bilan o`tmas burchak tashkil qiladi.

2) ***l*** musbat bo`lsa, to`g`ri chiziq ordinate o`qining musbat tomomini kesgan bo`ladi, manfiy bo`lsa – manfiy tomonini kesgan bo`ladi va agar ***l = 0*** bo`lsa, to`g`ri chiziq kordinatalar boshidan o`tadi (masalan, shakl 30 dagi kabi). Bu holda, ya`ni to`g`ri chiziq koordinatalar boshidan o`tganda tenglamaning ko`rinishi

$$\boldsymbol{y = kx}$$

bo`ladi.

3) agar ***k*** nin qiymatini o`zgartirmay, (3) tenglamadagi ***l*** ning qiymati o`zgartirib turilsa, u holda to`g`ri chiziq o`z o`ziga parallel bo`lib o`rnini o`zgartiradi)





4) Agar ***l*** ning qiymatini o`zgartirmay (2) tenglamadagi R ning qiymati o`zgartirib turilsa, u holda to`g`ri chiziq ***R*** nuqtaning atrofida aylana boshlaydi (shakl 33). Masalan, ***k = 1*** bo`lganda $\boldsymbol{y = x + l}$ tenlama shakldagi 1-chiziqni





ifoda qiladi; $\boldsymbol{k} = \frac{1}{2}$ bo`lganda $\boldsymbol{y} = \frac{1}{2}\boldsymbol{x} + \boldsymbol{l}$ tenglama shakldagi 2- chiziqni ifoda qiladi; $\boldsymbol{k} = \frac{1}{3}$ bo`lganda $\boldsymbol{y} = \frac{1}{3}\boldsymbol{x} + \boldsymbol{l}$ tenglama shakldagi 3- chiziqni ifoda qiladi va shunga o`xshash; ***k*** nin qiymati kamayib brogan sari, to`g`ri chiziqning abscissa o`qi bilan kesishgan nuqtasi uzoqlashib boradi va ***k = 0*** bo`lganda chiziq absissa o`qiga paraellel bo`lib, tenglamaning ko`rinishi

$$\boldsymbol{y} = \boldsymbol{l} \qquad (7)$$





b`ladi, bu es ***x*** o`qiga parallel bo`lgan va undan masofasi ***l*** gat eng bo`lgan to`g`ri chiziqdan iborat; ***l = 0*** bo`lganda bu chiziq ***x*** o`qi bilan birlashtirib ketadi, yok boshqacha qilib aytganda ***y = 0*** tenglama abscissa o`qining tenglamasi bo`ladi.

5) ***x = a*** tenglama ordinate o`qiga parallel bo`lgan va undan masofasi ***a*** gat eng bo`lgan to`g`ri chiziqning tenglamasi edi. Shuning uchun ***a = 0*** bo`lganda bu chiziq ordinate o`qi bilan birlashib ketadi, ya`ni ***x = 0*** – ordinate o`qining tenglamasi bo`ladi.

y = kx + l tenglamaning parametrlari bo`lgan ***k*** va ***l*** ning qiymatlari belgili bo`lgan holda, u tenglama ifoda qilgan to`g`ri chiziqni chizish mumkin. Masalan, faraz qilaylik, bizga ushbu tenglama berilgan bo`lsin:

$$\boldsymbol{y = 2x + 3}$$

Bu tenglamani (3) tenglama bilan solishtirib qaraganda, ko`ramizki

$$\boldsymbol{k = tg\,\alpha = 2, \ \ l = 3.}$$

Demak, biz izlagan to`g`ri chiziq ordinate o`qining musbat yo`nalishini kordinatalar boshidan 3 birlikka teng bo`lgan masofada kesib ketadi. Shuning uchun ordinate o`qida 3 birlik o`lchab olinsa, unda ***A*** nuqta aniqlanadi.

Bizning masalada ***k*** ning qiymati musbat son. Demak, biz izlagan to`g`ri chiziq ***A*** nuqtadan o`tib, absissa o`qining musbat yo`nalishi bilan shunday o`tkir burchak tashkil qiladiki, uning tangensi 2 birlikka teng bo`ladi; bunga qaraganda biz izlagan chiziq abscissa o`qining manfiy yo`nalishini kesib o`tadi. Shunin uchun ***OA*** ni teng ikkiga bo`lib, ***OA*** ning yarmini absissa o`qining manfiy yo`nalishida o`lchab olinsa, unda shunday ***B*** nuqta aniqlanadiki,

$$tg\,\alpha = \frac{AO}{BO} = 2$$

bo`ladi. Natijada ***A*** va ***B*** nuqtalardan o`tgan to`g`ri chiziq biz izlagan chiziq bo`ladi (Shakl 34).

Biz bu erda shu misol bilan cheklanamiz. Kelasi paragrafda tenglama bo`yicha to`g`ri chiziqni chizish uchun bundan ko`ra soda usul beriladi.



Shakl 34.

To`g`ri chiziqning umumiy tenglamasi

O`tgan paragrafda tekislikdagi har bir to`g`ri chiziqning dekart koordinatalariga nisbatan birinchi darajali tenglam bilan ifoda qilishini isbot qilingan edi. Endi buning teskarisi bo`lgan ushbu teoremani isbot qilamiz;:

Teorema. *O`zgaruvchi **x** va **y** ga nisbatan birinchi darajali har bir **Ax + By + C = 0** tenglama dekart koordinatalarida to`g`ri chiziq ifoda qiladi.*

Shuning uchun, faraz qilaylik, birinchi darajali biror

$$Ax + By + C = 0 \qquad (1)$$

Tenglam berilgan bo`lsin.

Faraz qilaylik, $B \neq 0$ bo`lsin. Berilgan tenglamani ***y*** ga nisbatan yechsak,

$$y = -\frac{A}{B}x - \frac{C}{B} \qquad (2)$$

bo`ladi. Bu nenlamani o`tgan paragrafda chiqarilgan

$$y = kx + l$$

tenglama bilan solishtirib qaraganda, ko`ramizki**,**

$$k = -\frac{A}{B}, \qquad l = -\frac{C}{B}.$$

Demak, bu holda (1) tenglama shunday to`g`ri chiziqni ifoda qiladiki, uning burchak koeffitsenti $-\frac{A}{B}$ va boshlang`ich ordinatasi $-\frac{C}{B}$ bo`ladiki.

Endi (1) tenglamaning ba`zi xususiy hollarni, ya`ni uning koeffitsentlaridan ba`zilarining nolga teng bo`lgan hollarini tekshirib ko`ramiz. Faraz qilaylik, ***Ax + By + C = 0*** tenglamaning koeffitsentlaridan:

1) ***B = 0*** bo`lsin; bu holda tenglamaning umumiy ko`rinishi

$$Ax + C = 0 \text{ yoki } x = -\frac{C}{A}$$

b`ladi yoki: $-\frac{C}{A} = a$ faraz qilinsa:

$$x = a$$

bo`ladi. Bu esa ordinata o`qiga parallel bo`lgan to`gri chiziqni ifoda qiladi.

2) $C = 0$ bo`lsin; bu holda tenglamaning ko`rinishi

$$Ax + By = 0$$

Bo`ladi, yoki bu tenglama y ga nisbatan yechilsa:

$$y = -\frac{A}{B}x,$$

yoki $-\frac{A}{B} = k$ faraz qlinsa:

$$y = kx$$

bo`ladi. Bu esa koordinatalar boshidan o`tgan to`g`ri chiziqni ifoda qiladi.

3) $A = 0$ bo`lsin; bu holda umumiy tenglamaning ko`rinishi

$$By + C = 0 \text{ yoki } y = -\frac{C}{B}$$

bo`ladi, yoki $-\frac{C}{B} = l$ faraz qilinsa:

$$y = l$$



bo`ladi. Bu esa abscissa o`qig parallel bo`lgan to`g`ri chiziqni ifoda qiladi.

4) $A = 0$ va $C = 0$ bo`lsin; bu holda umumiy tenglamaning ko`rinshi

$$By = 0 \text{ yoki } x = 0$$

bo`ladi. Bu esa absissa o`qin ifoda qiladi.

5) $B = 0$ va C = 0 bo`lsin; bu holda umumiy tenglamaning ko`rinishi

$$Ax = 0 \text{ yoki } x = 0$$

bo`ladi. Bu esa ordinate o`qini ifoda qiladi.

Shunday qilib, (1) tenglamadagi o`zgaruvchi $x$ va $y$ oldidagi $A$ va $B$ koeffitsentlaridan hech bo`lmaganda biri nolga teng bo`lmaganda, bu tenglama hamma vaqt to`g`ri chiziq ifoda qiladi.

6* Endi yana bir,maxsus holni tekshirib ko`ramiz. Faraz qilaylik (1) tenglamada $A = 0$ va $B = 0$ bo`lsin; bu holda tenglamaning ko`rinishi

$$C = 0$$

Yoki C ga qisqartganda

$$1 = 0$$

bo`ladi. Eng avval bunday tenglik mumkin emas. Buning sababi tenglamaning avvalgi ikki hadini tashlashdan kelb chiqadi. Haqiqatda, qoyilgan shart bo`yicha tenglamani

$$0\,x + 0\,y + 1 = 0$$

Shaklda yozish mumkin.

Agar bu holni, A va B qiymatlarining nolga intilgan limit holi faraz qilinsa, bu choqda x va y ning qiymatlari bo`lgandagina

$$0\,x = 0 \quad \text{va} \quad 0\,y = 0$$

Bo`ladi. Lekin tenglamaning ozod hadi nolga teng bo`lgani uchun $0\,x$ va $0\,y$ dan hech bo`lmaganda birining nolga teng bo`lmasligi lozim, yoki boshqacha qilib aytganda, koordinatalaridan biri yoki ikkalasi chekli qiymatga ega bo`la olmaydi, ya`ni cheksiz bo`ladi. Biz koordinatalari cheksiz bo`lgan nuqtani “cheksiz uzoqlashgan” nuqta degan edik. Bunga qaraganda

$$0\,x + 0\,y + 1 = 0$$

tenglamani faqat cheksiz uzoqlashgan nuqtaning koordinatalari qanoatlantira oladi. Shuning uchun bu tenglama cheksiz uzoqlashgan to`g`ri chiziqni ifoda qiladi, deb aytish mumkin.

Bu natijaga yana boshqacha mulohaza bilan kelish mumkin.

Tekislikda to`g`ri chiziqning o`rni ikki nuqta bilan to`la aniqlanadi. Buni e`tiborga olganda: berilgan tenglama bo`yicha to`g`ri chizish uchun, u chiziqqa qarashli ikki nuqtaning koordinatalarni aniqlash kifoya qiladi. Aniqlangan ikki nuqtadan o`tgan to`g`ri chiziq – izlangan chiziq bo`ladi.

Misol 1. Tenglamasi $x - 2y + 3 = 0$ bo`lgan to`g`ri chiziq chizilsin.

Izlanmoqda bo`lgan to`g`ri chiziqqa qarashli nuqtaning koordinatalarini aniqlash uchun tenglamadagi $x$ ga biror ixtiyoriy berib, so`ngra y ning qiymatini topamiz.

Masalan:

$x = 1$ bo`lsa, $y = 2$ bo`ladi, ya`ni $A\ (1,2)$ nuqta aniqlanadi

$x = -1$, $y = 1$, $B(-1,1)$.

Koordinatalar tekisligida A va B nuqtalarning o`rinlarini topib, so`ngra ularni to`g`ri chiziq bilan tutashtirsak, biz izlagan to`g`ri chiziq hosil bo`ladi (Shakl 36).



Misol 2. Tenglamasi $y = \frac{3}{2}x - 3$ bo`lgan to`g`ri chiziq chizilsin.

Birinchi misolda ko`rsatilgan yo`l bilan davom etib, to`g`ri chiziqqa qarashli ikkita nuqtani topamiz: $x = 1$ bo`lsa, $y = -1{,}5$ bo`ladi, ya`ni $M\ (1, -1{,}5)$ nuqta aniqlanadi, $x = 2$ bo`lsa, $y = 0,$ ya`ni $N\ (2{,}0)$ nuqta aniqlanadi.

Koordinatalar tekisligida aniqlangan ***M*** va ***N*** nuqtalarning o`rinlarini topib, so`ngra ularni to`g`ri chiziq bilan tutashtirsak, izlangan ***BA*** to`g`ri chiziq hosil bo`ladi (Shakl 37).

To`g`ri chiziqning kesmalar bo`yicha tenglamasi

1. Agar to`g`ri chiziqning koordinata o`qlaridan kesgan kesmalari aniq bo`lsa, u holda bunday chizizqning koordinata o`qlariga nisbatan o`rni ham aniq bo`ladi. Faraz qilaylik, biror ***AB*** to`g`ri chiziqning abscissa o`qidan kesgan kesmasi a va ordinate o`qidan kesgan kesmasi $b$ bo`lsin (Shakl 38), ya`ni

$$OS = a, \quad OR = b.$$

Bu kesmalar yordami bilan ***AB*** ning tenglamasini tuzish mumkin. Buning uchun uning biror ***M*** nuqtasining o`zgaruvchi koordinatalarini $x$ va $y$ faraz qilamiz, ya`ni shakl bo`yicha

$$X = OP, \quad y = MP.$$

To`g`ri burchakli ***ORS*** va ***PMS*** uchburchaklar o`zaro o`xshash bo`ladi. Shuning uchun:

$$\frac{OR}{PM} = \frac{OS}{PS};$$

shaklga muofiq:

$$OR = b,\ OS = a,\ PS = OS - OP = a - x,$$

demak,

$$\frac{b}{y} = \frac{a}{a - x};$$

yoki

$$ab - bx = ay, \quad \text{yoki} \quad bx + ay = ab,$$

yoki keyingi tenglamaning ikkala tomoni ab ga bo`linsa, uning ko`rinishi quyidagicha bo`ladi:

$$\frac{x}{a} + \frac{y}{b} = 1$$

Bu tenglama to`g`ri chiziq tenglamasining uchinchi ko`rinishi. Tenglamadagi ***a*** va ***b*** miqdorlardan iborat. Shuning uchun ***a*** va ***b*** ning ikkalasi musbat bo`lsa, to`g`ri chiziq koordinata o`qlarining musbat
yo`nalishida uchraydi, agar ***a*** manfiy va ***b*** musbat bo`lsa, u holda absissa o`qining manfiy yo`nalishida va ordinata o`qining manfiy yo`nalishida va



ordinata o`qining musbat yo`nalishida uchraydi va unga o`xshash. Har holda to`g`ri chiziqning o`rni ***a*** va ***b*** ning algebraic qiymatlari bilan aniqlanadi.

To`g`ri chiziqni normal tenglamasi

1. Agar to`g`ri chiziqqa koordinata boshidan tushirilgan perpendikulyarning uzunligi va uning absissa o`qi bilan tashkil qilgan burchagi aniq bo`lsa, u holda to`g`ri chiziqning o`rni ham aniq bo`ladi.



Faraz qilaylik, biror ***AB*** t`og`ri chiziqqa koordinatalar boshidan tushirilgan ***OP*** perpendikulyarning uzunligi ***p*** va uning absissa o`qinin musbat yo`nalishi bilan tashkil qilgan ***POS*** burchagi α bo`lsin (Shakl 39), ya`ni

$$OP = p, \quad POS = \alpha .$$

To`g`ri chiziqning koordinata o`qlaridan kesgan kesmalari ***a*** va ***b*** bo`lsin, ya`ni:

$$OS = a, \quad OR = b .$$

SOP to`g`ri burchakli uchburchakda

$$OP = OS\ c$$

yoki

$$p = a\ co$$

Shunga o`xshash ***ORP*** to`g`ri burchakli uchburcha

$$OP = OR\ cos($$

yoki

$$p = b \sin \alpha ,$$

(1) va (2) tengliklardan ***a*** va ***b*** ni aniqlasak:

$$a = \frac{p}{\cos \alpha}$$

va

$$b = \frac{p}{\sin \alpha}$$

bo`ladi, ***a*** va ***b*** ning no`rniga qo`yamiz:

$$\frac{x\cos\alpha}{p} + \frac{y\sin\alpha}{p} = 1,$$

Yoki kasrdan qutqazib, so`ngra ozod hadni chapga o`tkazsak, tenglamaning ko`rinishi quyidagicha bo`ladi:

$$x\cos\alpha + y\sin\alpha - p = 0$$

To`g`ri chiziqning bu ko`rinishdagi tenglamasi **normal tenglama** deyiladi. Bu tenglama quyidagi xususiyatlarga egadir:

1) ***x*** va ***y*** ning koeffitsentlari ***cos*** α va ***sin*** α bo`lgani uchun ulardan har birining qiymati birdan katta bo`la olmaydi;

2) koeffitsentlarning kvadratlari yig`indisi birga teng $\sin\alpha + \cos\alpha = 1$ va

3) tenglamaning ozod hadi ***p*** hamma vaqt musbat sanaladi.

Masalan,

$$\frac{3}{5}x + \frac{4}{5}y - 3 = 0$$

to`g`ri chiziqning normal tenglamasi bo`la oladi, chunki

$$\frac{3}{5} < 1; \frac{4}{5} < 1;$$

$$(\frac{3}{5}) + (\frac{4}{5}) = \frac{9}{25} + \frac{16}{25} = 1.$$

Misol uchun olingan tenglamani (4) bilan solishtirib qaraganda, ko`ramizki:

$$\cos \alpha = \frac{3}{5}, \sin \frac{4}{5}, p = 3 .$$

To`g`ri chiziq tenglamasi normal holga keltirish

Analitik geometriyaning ko`pgina masalalarini yechishda to`g`ri chiziq tenglamasini normal holga keltirish kerak bo`ladi, ya`ni

$$Ax + By + C = 0$$

tenglamani

$$x\cos\alpha + y\sin\alpha - p = 0$$

shaklda yozish to`g`ri keladi.

Buning uchun shunday son topish kerakki, u songa (1) tenglamaning ikkala tomoni ko`paytirganda, chiqqan yangi tenglamaning koeffitsentlari (2) tenglamaning koeffitsentlari bo`lsin, Bunday sonni ***M*** faraz qilib tenglamaning ikkala tomonini unga ko`paytiramiz:

$$AMx + BMy + CM = 0.$$

Bu tenglamaning normal bo`lishi uchun ***x*** ning koeffitsenti bo`lgan ***AM*** biror α burchagining kosinusi, ***y*** ning ***BM*** koeffitsenti α ning sinusi va ***CM*** koordinatalar boshidan to`g`ri chiziqqa tushirilgan perpendikulyarning uzunligi bo`lishi kerak, ya`ni:

$$AM = \cos\alpha,\ BM = \sin\alpha,\ CM = -p.$$

Bu tenglklardan avvalgi ikkitasi kvadratga kutarilsa,

$$AM = \cos\alpha,\ BM = \sin\alpha;$$

Bularni hadlab qo`shganda

$$M(A + B) = \cos\alpha + \sin\alpha = 1.$$

Bundan

$$M = \pm\frac{1}{\sqrt{A+B}}.$$

Demak, ***M*** soni shunday qiymatga ega bo`lgan holdagina tenglama normal holga keladi. Bu xususiyatga ega bo`lgan ***M*** soni **normal ko`paytuvchi** deyiladi.

M ning ifodasi (5) dan (4) ga qo`yilsa, α va ***p*** parametr aniqlanadi:

$$\cos\alpha = \pm\frac{A}{\sqrt{A+B}};$$

$$\sin\alpha = \pm\frac{B}{\sqrt{A+B}};$$

$$p = \pm\frac{C}{\sqrt{A+B}}.$$

Qo`yilgan shart bo`yicha bu tenglikning chap tomonidagi ***p*** musbat son edi. Shuning uchun tenglikni o`ng tomoni ham musbat bo`lishi lozim. Bu esa ***C*** ning ishorasi bilan radikalning ishorasi o`zaro teskari bo`lgan holdagina bo`ladi.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. To'g'ri chiziqning umumiy tenglamasi?
2. To'g'ri chiziqning normal tenglamasi?
3. Uch to'g'ri chiziqning bir nuqtada kesishish sharti?

1.3.2-б. Blits-so'rov uchun savollar

1. To'g'ri chiziqning koordinata o'qlarga nisbatan tenglamasi?
2. Bir nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziqlar oilasi?
3. To'g'ri chiziqning burchak koeffisient tenglamasi?

1.3.2-в. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Nuqtadan to'g'ri chiziqgacha masofa?
2. Ikki to'g'ri chiziqning parallelik sharti?
3. To'g'ri chiziqlarning perpendikulyarlik sharti?
4. Ikki to'g'ri chiziq orasidagi burchak?

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xarakterdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. Vilenkin N.Ya. va boshš. Matematika. –M.: Prosвещyeniye. 1985.
2. Rajabov F., Nurmetov A. Analitik geometriya va chizišli algebra. –T.: O'qituvchi. 1990.

3.A.V.Pogorelov. Analitik geometriya. –T.: Œšituvchi. 1983.

4.Shneyder, A.I. Sluskiy, A.S.Shumov. Kratkiy kurs vishiey matematiki. –M.: Visshaya shkola. 1972.

5.Ilin V.I., Poznyak E.G. Analiticheskaya geometriya. –M.: Nauka. 1988.

6.Ibroximov M. Matematikadan masalalar tœplami. –T.: Œšituvchi 1994.

Qo'shincha adabiyotlar

7.Šabulov V.Š. Rašamli avtomatlar, algoritmlar. –T.: Œšituvchi, 1980.

8.Vlenkin N.Ya. Zadachnik-praktikum po matematike. –M.: Prosвещyeniye. 1977.

9.Ochilova X., Nazarov N. Geometriyadan masalalar tœplami. –T.: Œšituvchi, 1983.

10. Shodiyev T. Analitik geometriyadan šœllanma. –T.: Œšituvchi, 1973.

11. Postushenko A.S. Vысщaya matematika. –M.: Vысщaya shkola, 2002.

12. Beklemishev D.V. Kurs analiticheskoy geometrii i lininoy algebrы. –M.: Fizmatlit, 2000.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va

iloji yo’q bo’lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g’oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo’lma;
- Izoh berishdan o’zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g’oyalar ko’p bo’lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g’oya tug’ulishi imkoniyati ko’proq
- Agar g’oyalar takrorlansa o’ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g’oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo’lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o’ylama.

1.4.2. “Insert” texnikasi qoidalari

- Matndi o’qib, ularda savollat tug’dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo’yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to’ldirish:

Agar «!» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki siz o’ylagan fikrga to’g’ri kelayotganini o’qiyapsiz;
Agar «–» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki tyo’g’ri deb o’ylaganingizga mutlaqo zid bo’lganini o’qiyapsiz;
Agar «+» bo’lsa siz o’qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo’lsa, siz o’qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko’proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o’z do’stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo’lib hurmar ko’rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o’ziga kerak paytda yordam so’rashi kerak;
- Har kim undan yordam so’ralganda yordam ko’rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o’zgalarga yordam berib o’zimiz o’rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 12. Nuqtadan to’g’ri chiziqqacha bo’lgan masofa, ikki to’g’ri chiziq orasidagi burchak, Ikki nuqtadan o’tuvchi to’g’ri chiziq tenglamalari.

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Analitik geometriya va chiziqli algebra

O’quv soati: 2 soat (ma`ruza);

A_1, A_2, B_1, B_2 nuqtalar ***ellipsning uchlari*** deyiladi.



2-chizma.

Ular 2-chizmada tasvirlangan. A_1A_2 kesma uzunligi $2a$ ga teng bo'lib, u ellipsning *katta o'qi*, OA_1 kesma uzunligi a ga teng bo'lib, uni ellipsning *katta yarim o'qi* deyiladi. B_1B_2 kesma uzunligi $2b$ ga teng bo'lib, u ellipsning *kichik o'qi*, OB_1 kesma uzunligi b ga teng bo'lib, u ellipsning *kichik yarim o'qi* deyiladi.

2-ta'rif. Ellipsning fokuslari orasidagi masofaning katta o'qining uzunligiga nisbati ellipsning ***ekstsentrisiteti*** deyiladi va u e harfi bilan belgilanadi:

$$e = \frac{2c}{2a} = \frac{c}{a}$$

Bu yerda $c < a$ bo'lgani uchun $0 < e < 1$ bo'ladi.

Misol. $M(0;5)$ nuqta orqali o'tuvchi fokuslari orasidagi masofa 6 ga teng bo'lgan ellipsning kanonik tenglamasini yozing.

Yechish. Ellipsning kanonik tenglamasi

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$$

ni qaraymiz. $M(0;5)$ nuqta ellipsga tegishli bo'lgani uchun $\frac{25}{b^2} = 1$, bundan $b^2 = 25$. Endi a^2 ni topish qoldi; ma'lumki, $a^2 - b^2 = c^2$, bunda c fokuslar orasidagi masofaning yarimi a^2 =25+9=34. Demak, izlangan tenglama

$$\frac{x^2}{34} + \frac{y^2}{25} = 1$$

bo'ladi.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1. Ellips ta'rifini bering va uning kanonik tenglamasini chiqaring. Ellips shakli qanday ko'rinishga ega?
2. Ellipsning ekssentrisiteti deb nimaga aytiladi?

1.3.2-b. Blits-so'rov uchun savollar

1. Ikkinchi tartibli chiziqlar deb qanday ko'rinishdagi tenlamalarga aytiladi?
2. Ellips deb nimaga autiladi?
3. Fokus bu nama?

4. Direktrissa nima?

1.3.2-в. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Ellipsning kanonik tenglamasi?
2. Giperbolaning kanonik tenglamasi?
3. Parobolaning kanonik tenglamasi?

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xarakterdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. Vilenkin N.Ya. va boshš. Matematika. –M.: Prosvещyeniye. 1985.
2. Rajabov F., Nurmetov A. Analitik geometriya va chizišli algebra. –T.: O'qituvchi. 1990.
3.A.V.Pogorelov. Analitik geometriya. –T.: Œšituvchi. 1983.
4.Shneyder, A.I. Sluskiy, A.S.Shumov. Kratkiy kurs vishiey matematiki. –M.: Visshaya shkola. 1972.
5.Ilin V.I., Poznyak E.G. Analiticheskaya geometriya. –M.: Nauka. 1988.
6.Ibroximov M. Matematikadan masalalar tœplami. –T.: Œšituvchi 1994.

Qo'shincha adabiyotlar

7.Šabulov V.Š. Rašamli avtomatlar, algoritmlar. –T.: Œšituvchi, 1980.
8.Vlenkin N.Ya. Zadachnik-praktikum po matematike. –M.: Prosvещyeniye. 1977.
9.Ochilova X., Nazarov N. Geometriyadan masalalar tœplami. –T.: Œšituvchi, 1983.
10. Shodiyev T. Analitik geometriyadan šœllanma. –T.: Œšituvchi, 1973.
11. Postushenko A.S. Vыsщaya matematika. –M.: Vыsщaya shkola, 2002.
12. Beklemishev D.V. Kurs analiticheskoy geometrii i lininoy algebrы. –M.: Fizmatlit, 2000.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;

- Qancha g’oyalar ko’p bo’lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g’oya tug’ulishi imkoniyati ko’proq
- Agar g’oyalar takrorlansa o’ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g’oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo’lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o’ylama.

1.4.2. “Insert” texnikasi qoidalari

- Matndi o’qib, ularda savollat tug’dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo’yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to’ldirish:

Agar «!» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki siz o’ylagan fikrga to’g’ri kelayotganini o’qiyapsiz;
Agar «–» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki tyo’g’ri deb o’ylaganingizga mutlaqo zid bo’lganini o’qiyapsiz;
Agar «+» bo’lsa siz o’qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo’lsa, siz o’qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko’proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o’z do’stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo’lib hurmar ko’rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o’ziga kerak paytda yordam so’rashi kerak;
- Har kim undan yordam so’ralganda yordam ko’rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o’zgalarga yordam berib o’zimiz o’rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 17. Giperbola, parabola va ularning xossalari.

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Analitik geometriya va chiziqli algebra

O’quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O’quv mashg’uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish.

Ma`ruza rejasi:

34. Giperbola va ularning xossalari.
35. Parabola va ularning xossalari.

O’quv mashg’uloti maqsadi:

O’quv fani to’g’risida umumiy ta`surotlar berish, vektorlar va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O’quv mashg’uloti vazifasi:

13. *O’rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang’ich esda qoldirish va anglash; Analitik geometriya va chiziqli algebra fanning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini

rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish fanni o'ganishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;

14. *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
15. *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; fanning matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar stemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik dabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Oily matematika doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, oily matematika fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Giperbola va ularning xossalari.
2. Parabola va ularning xossalari.

Kalit so'zlar: Fokus, ekstrasentrisitet, direktrisa, masofa, o'q, giperbola, parabola.

1.3.1. Ma`ruza matni

Ixtiyoriy nuqtasidan fokuslar deb ataluvchi berilgan ikki F_1 va F_2 nuqtagacha bo'lgan masofalar ayirmasining absolyut qiymati uzgarmas miqdor $2a$ ga teng bo'lgan tekislikdagi barcha nuqtalar to'plami *giperbola* deyiladi. (o'zgarmas miqdor $2a$ fokuslar orasidagi masofadan ($2c$ dan) kichik deb olinadi).

Giperbola tenglamasini keltirib chiqarish uchun ellipsdagidek ish ko'ramiz.

Bu yerda ham abssissa o'qini fokuslardan o'tkazamiz, koordinata boshini esa fokuslarning o'rtasidan olamiz. U holda F_1(-c;0) va $F_2(c;0)$ fokuslar bo'ladi. Ta'rifga ko'ra $|\rho(F_1, M) - \rho(F_2, M)| = 2a$,

yoki

$$\left|\sqrt{(x+c)^2 + y^2} - \sqrt{(x-c)^2 + y^2}\right| = 2a .$$

Buni soddalashtirib,

$$(a^2 - c^2)x^2 + a^2y^2 = a^2(a^2 - c^2) \tag{1}$$

tenglamaga kelamiz, bu yerda $a^2 - c^2 < 0$, chunki $2a < 2c$. Shuning uchun $c^2 - a^2 = b^2$ deb olamiz. U holda (1) tenglama

$$\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1 \tag{2}$$

ko'rinishga keladi. Bu tenglama *giperbolaning kanonik tenglamasi* deyiladi.
Endi (2) tenlamaga ko'ra giperbolaning shaklini aniqlaymiz.

(2) tenglama x va y o'zgaruvchilarning juft darajalarini saqlagani uchun giperbola ikkita simmetriya o'qiga ega bo'lib, ular koordinata o'qlaridan iborat. Giperbolaning simmetriya o'qlari uning *o'qlari* deb ataladi, ularning kesishish nuqtasi esa *giperbolaning markazi* deb ataladi. Giperbolaning fokuslari joylashgan o'q uning *fokal o'qi* deyiladi.

Giperbola Ox o'qni $A_1(a;0)$ ва $A_2(-a;0)$ nuqtalarda kesib o'tadi, lekin Oy o'q bilan kesishmaydi, chunki $x=0$ bo'lganda $y^2=-b^2$ bo'lib qoladi va bu o'rinli emas. A_1 ва A_2 nuqtalar *giperbolaning uchlari*, ular orasidagi uzunligi 2*a* ga teng bo'lgan kesma esa uning *haqiqiy oqi* deyiladi.

Oy o'qida $B_1(0;-b)$ ва $B_2(0;b)$ nuqtalarni belgilasak, B_1 дан B_2 gacha bo'lgan 2*b* uzunlikdagi kesma giperbolaning *mavxum o'qi* deyiladi. (2) tenglamani *y* ga nisbatan yechami

$$y=\pm\frac{b}{a}\sqrt{x^2-a^2} \tag{3}$$

bo'ladi. Avvalo giperbolaning shakli I chorakda tasvirlanadi. Bu holda (12) da + ishora olinadi.
Bu yerda $x\geq a$ bo'lib qoladi. (12) da $x\to+\infty$ da y 0 dan $+\infty$ gacha o'sadi.



1-chizma.

Giperbola koordinata o'qlariga simmetrik bo'lgani uchun uning grafigi 3-chizmadagidek bo'ladi.

Giperbola $y=\pm\frac{b}{a}x$ tenglamalar bilan aniqlanuvchi ikkita assimptotaga ega.

Eslatma. Agar cheksiz tarmoqqa ega bo'lgan egri chiziqning nuqtasi shu chiziq buylab harakatlanib borganda uning bir to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofasi nolga intilsa, bir to'g'ri chiziq egri chiziqning assimptotasi deyiladi.

Agar *a=b* (yarim o'qlari teng) bo'lsa, giperbola *teng tomonli* deyiladi.

Bu holda giperbola tenglamasi

$$x^2-y^2=a^2 \tag{4}$$

ko'rinishda bo'ladi.

Teng tomonli giperbola assimptotalarining tenglamalari *y=x, y=-x* bo'lib, ular orasidagi burchak 90^0 ga teng bo'ladi. Koordinata o'qlarini -45^0 ga burchak, 0*x* o'q *y=-x* asimptota bilan, o'q esa *y=+x* asimptota bilan ustma-ust tushib, asimptotalar yangi koordinata o'qlari bo'lib qoladi. Bu yangi o'qlarda (13) giperbola *xy=a* ko'rinishda ifodalanishini ko'rsatish mumkin.

Giperbola fokuslari orasidagi masofaning haqiqiy o'qning uzunligiga nisbati giperbolaning *ekssentrisiteti* deyiladi va e harfi bilan belgilanadi:

$$e = \frac{2c}{2c} = \frac{c}{a}$$

Misol. Giperbolaning ekssentrisiteti $\frac{13}{12}$, fokuslari orasidagi masofasi 26 ga tengligi ma'lum bo'lsa, uning kanonik tenglamasi tuzilsin.

Yechish. Shartga ko'ra 2c=26 va, demak giperbolaning katta o'qi *a=12* bo'lgani uchun $b^2=c^2-a^2=169-144=25$ bo'ladi.

Shunday qilib giperbola tenglamasi

$$\frac{x^2}{144} - \frac{y^2}{25} = 1$$

bo'ladi.

Parabola

Parabola deb tekislikdagi shunday nuqtalarning geometrik o'rniga aytiladiki, bu nuqtalarning har biridan *fokus* deb ataluvchi berilgan nuqtagacha bo'lgan masofa *direktrisa* deb ataluvchi berilgan to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofaga tengdir (fokus direktrisada yoymaydi deb olinadi).



4-chizma.



5-chizma.

Fokusdan direktrisagacha bo'lgan masofani *p* orqali belgilaymiz. Bu *parabolaning parametri* deyiladi.

Parabola tenglamasini chiqaramiz. Direktrisa va fokuslarni 4-chizmadagidek joylashtiramiz. Koordinata boshini *RF* kesmaning o'rtasidan olamiz. Bu holda fokus $F(\frac{P}{2};0)$ koordinataga ega bo'ladi. Direktrisa tenglamasi $x = -\frac{p}{2}$ (14) ko'rinishga ega. Faraz qilaylik

M(x;y) parabolaning ixtiyoriy nuqtasi bo'lsin. Ta'rifga ko'ra *MN=MF* 4-chizmada ko'rinib turibdiki

$$MN = NQ + QM = \frac{P}{2} + x, MF = \sqrt{(x - \frac{P}{2})^2 + y^2}$$

Demak,

$$\frac{P}{2} + x = \sqrt{(x - \frac{P}{2})^2 + y^2}$$

Buning har ikkala tomonini kvadratga kutarib soddalshtirsak,

$$y^2 = 2px \qquad (5)$$

tenglama hosil bo'ladi.

(5) tenglama *parabolaning kanonik tenglamasi* deyiladi.

Endi parabolaning formasini tekshiramiz. (5) tenglamada y juft darajada qatnashgani uchun absissa o'qi parabolaning simmetriya o'qi bo'ladi. $y^2>0$ bo'lgani uchun ham musbat bo'ladi. Shuning uchun parabola grafigi I va IV choraklarda joylashadi. $x=0$ da $y=0$. Demak, parabola koordinata boshidan o'tadi. $x \to +\infty$ da y ham cheksiz ortadi. Parabola 5- chizmada tasvirlangan.

Misol. $y^2=8x$ parabola berilgan. Uning direktrisasining tenglamasini tuzing va fokusini toping.

Yechish. Berilgan tenglamani (15) tenglama bilan solishtirsak $2p=8, p=4$ ekanini topamiz. Demak, direktrisa tenglamasi $x=-2$ fokus esa F(2;0) bo'ladi.

Eslatma. Agar parabolaning fokus o'qi sifatida ordinata o'qini olsak, uning tenglamasi

$$x^2=2py$$

ko'rinishda bo'ladi.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

16. Giperbola ta'rifini bering va uning kanonik tenglamasini chiqaring. Giperbolaning shakli qanday ko'rinishga ega?
17. Qanday holda giperbola teng tomonli bo'ladi?
18. Giperbolaning ekssentrisiteti deb nimaga aytiladi?
19. Parabola ta'rifini bering va uning kanonik tenglamasini chiqaring, uning shaklini chizing.
20. Parabolaning direktrisasi deb nimaga aytiladi?

Mashqlar:

1. $5x^2 - 4y^2 = 20$ giperbolaning yarim o'qlarini, eksentrisitetini va fokuslarining koordinatalrini toping. (-4, $\sqrt{15}$) nuqtadagi fokal radiuslarning uzunliklarini toping.
2. O'qlari koordinat o'qlari bilan ustma-ust tushadigan giperbola (-3; $\frac{\sqrt{2}}{2}$) va (4;-2) nuqtalardan utadi. Uning kanonik tenglamasini toping.
3. Giperbolaning eksentrisiteti e =1,5. *M* nuqtaning fokal radiusi 12. Shu *M* nuqtadan u bilan bir tomonda yotuvchi direktrisagacha bo'lgan masofani hisoblang.
4. Quyidagi giperbolaning tenglamasini kanonik ko'rinishga keltiring:

$$9x^2+25y^2-18x-100y-316=0.$$

5. $y^2=12x$ parabola fokusining koordinatalarini toping va direktrisasining tenglamasini tuzing.
6. Direktrisaning tenglamasi $x=-3$ va fokusi $f(1;0)$ bo'lgan parabolaning tenglamasini tuzing.
7. $x^2=+4y$ parabola fokusining koordinatalarini hamda direktrisasining tenglamasini tuzing.

1.3.2-b. Blits-so'rov uchun savollar

1. . Ikkinchi tartibli chiziqlar deb qanday ko'rinishdagi tenlamalarga aytiladi?
2. Giperbola nima?
3. Parabola deb nimaga autiladi?
4. Fokal radius nama?
5. Direktrissa nima?

1.3.2-в. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. Ellipsning kanonik tenglamasi?
2. Giperbolaning kanonik tenglamasi?
3. Parobolaning kanonik tenglamasi?

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xarakterdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. Vilenkin N.Ya. va boshš. Matematika. –M.: Prosвещyeniye. 1985.
2. Rajabov F., Nurmetov A. Analitik geometriya va chizišli algebra. –T.: O'qituvchi. 1990.

3.A.V.Pogorelov. Analitik geometriya. –T.: Œšituvchi. 1983.

4.Shneyder, A.I. Sluskiy, A.S.Shumov. Kratkiy kurs vishiey matematiki. –M.: Visshaya shkola. 1972.

5.Ilin V.I., Poznyak E.G. Analiticheskaya geometriya. –M.: Nauka. 1988.

6.Ibroximov M. Matematikadan masalalar tœplami. –T.: Œšituvchi 1994.

Qo'shincha adabiyotlar

7.Šabulov V.Š. Rašamli avtomatlar, algoritmlar. –T.: Œšituvchi, 1980.

8.Vlenkin N.Ya. Zadachnik-praktikum po matematike. –M.: Prosвещyeniye. 1977.

9.Ochilova X., Nazarov N. Geometriyadan masalalar tœplami. –T.: Œšituvchi, 1983.

10. Shodiyev T. Analitik geometriyadan šœllanma. –T.: Œšituvchi, 1973.

11. Postushenko A.S. Vысщaya matematika. –M.: Vысщaya shkola, 2002.

12. Beklemishev D.V. Kurs analiticheskoy geometrii i lininoy algebrы. –M.: Fizmatlit, 2000.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o’zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g’oyalarni baholashdan o’zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo’q bo’lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g’oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo’lma;
- Izoh berishdan o’zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g’oyalar ko’p bo’lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g’oya tug’ulishi imkoniyati ko’proq
- Agar g’oyalar takrorlansa o’ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g’oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo’lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o’ylama.

1.4.2. “Insert” texnikasi qoidalari

- Matndi o’qib, ularda savollat tug’dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo’yiladi;
- “Insert” jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to’ldirish:

Agar «!» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki siz o’ylagan fikrga to’g’ri kelayotganini o’qiyapsiz;
Agar «–» bo’lsa siz o’z bilimingizga yoki tyo’g’ri deb o’ylaganingizga mutlaqo zid bo’lganini o’qiyapsiz;
Agar «+» bo’lsa siz o’qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo’lsa, siz o’qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko’proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o’z do’stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo’lib hurmar ko’rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o’ziga kerak paytda yordam so’rashi kerak;
- Har kim undan yordam so’ralganda yordam ko’rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o’zgalarga yordam berib o’zimiz o’rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 18. Aylanma va silindrik sirtlar..

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Analitik geometriya va chiziqli algebra

O’quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O’quv mashg’uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o’rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Aylanma va silindrik sirtlar.

O’quv mashg’uloti maqsadi:

O’quv fani to’g’risida umumiy ta`surotlar berish, vektorlar va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'uloti vazifasi:

13. *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Analitik geometriya va chiziqli algebra fanning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish fanni o'ganishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
14. *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
15. *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; fanning matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar stemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik dabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Oily matematika doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, oily matematika fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi

1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;

- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Aylanma va silindrik sirtlar.

Kalit so'zlar: masofa, o'q.

1.3.1. Ma`ruza matni

Ikkinchi tartibli sirtlar orasida aylanma sirtlar uchraydi. Masalan: $x^2 + y^2 = R^2$ aylanani OX o'qi atrofida aylantirsak $x^2 + y^2 + z^2 = R^2$ sfera hosil bo'ladi.



Endi aylanma sirtlar haqida tushunchalar bilan tanishamiz: UOZ tekislikda biror L chiziq (r – 40) F (y;z) = 0 tenglama bilan berilgan bo'lsin. L chiziqning OZ o'q atrofida aylanashidan hosil bo'lgan sirt tenglamasini tuzamiz. Qulaylik uchun L chiziqning hamma nuqtalari uchun $y \geq 0$ bo'lsin. $M(x, y, z)$ nuqtaizlanayotgan aylanma sirtning ixtiyoriy nuqtasi bo'lsin. $M(x, y, z)$ nuqtasi L chiziqning $N(0, y, z)$ nuqtasini aylanish vaqtidagi biror holati deb qarash mumkin N nuqtaOZ o'qi atrofida aylanganda markazi $P(0,0, z)$ nuqtada bo'lim radiusi U ga teng bo'lgan aylana hosil bo'ladi, bu aylana hamma vaqt XOU tekislikka parallel tekislikda yotadi. Shuning uchun M va N nuqtalarning applikatalari bir xil, ya'ni Z=z bo'ladi. $P(0,0,z)$, $M(x,y,z)$ bo'lganidan

$$PM=\sqrt{x^2+y^2};PM=PN=Y \text{ bo'lganidan } Y=\sqrt{x^2+y^2}$$

Z va U larning ifodalarini L chiziqning tenglamasi F (y;z) = 0 ga qo'ysak $F(\sqrt{x^2+y^2},z)=0$ hosil bo'ladi. Bu tenglama aylanma sirt tenglamasidir. Agar L chiziqni hamma nuqtalari uchun $y\geq 0$ bo'lmasa, u holda $y\langle 0$ bo'ladi, bu holda PN = - Y, $Y=-\sqrt{x^2+y^2}$. Bu holda aylanma sirt tenglamasi.

$$F(-\sqrt{x^2+y^2},z)=0 \text{ bo'ladi.}$$

Ikkala holni birlashtirsak

$$F(\pm\sqrt{x^2+y^2},z)=0 \text{ tenglama hosil bo'ladi.}$$

Demak YOZ tekislikdagi L chiziqni OZ o'qi atrofida aylanishidan hosil bo'lgan aylanma sirt tenglamasini tuzish uchun chiziq tenglamasidagi u ni $\pm\sqrt{x^2+y^2}$ bilan almashtirish kerak ekan.

Agar L chiziqnimos ravishda OX va OU o'qlari atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan aylanma sirt tenglamasini tuzsak mos ravishda $F(x,\pm\sqrt{x^2+z^2})=0$ va $F(y,\pm\sqrt{x^2+z^2})=0$ tenglamalar hosil bo'ladi.

Masala: YOZ tekislikda joylashgan: 1) $\frac{y^2}{16}+\frac{z^2}{9}=1$ ellips, 2) $\frac{y^2}{25}-\frac{z^2}{16}=1$ giperbtla, 3) $y^2=4z$ parabolalarning OZ o'q atrofida aylanishidan hosil bo'lgan aylanma sirtlarning tenglamalari tuzilsin.

Yechish: chiziqlar YOZ tekislikda berilagn bo'lib, OZ o'qi atrofida aylanishidan hosil bo'lgan sirtlarni tenglamalarini tuzish kerakligida u ni $\pm\sqrt{x^2+y^2}$, ya'ni y^2 ni x^2+y^2 ga almashtiramiz:

$$\frac{x^2+y^2}{16}+\frac{z^2}{9}=1,\ \frac{x^2+y^2}{25}-\frac{z^2}{16}=1,\ x^2+y^2=4z.$$

2-chizma

Hosil bo'lgan tenglamalar bilan ifodalanadigan aylanma sirtlarga mos ravishda aylanma ellipsoid, aylanma giperboloid va aylanma paraboloid deb aytiladi.

Berilgan *l* to'g'ri chiziqqa paralel va L chiziqni kesuvchi barcha to'g'ri chiziqlardan tashkil topgan ***sirt silindrik sirt*** deb ataladi. Bunda L chiziq silindirik sirtning yo'naltiruvchisi, *l* to'g'ri chiziq esa uning ***yasovchisi*** deyiladi (2-chizma).

To'g'ri burchakli dekart koordinatlari sistemasida *f(x.y)=0* (6) tenglama yasovchisi *oz* o'qqa paralel bo'lgan silindrik sirtni ifoda qiladi. Shunga ko'ra *f (x, z)=0* tenglama yasovchi oy o'qqa paralel silindrik sirtni va *t (y, z)=0* esa yasovchisi *ox* o'qqa parallel bo'lgan silindirk sirtni ifoda qiladi.

Misollar:

1. Ushbu $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}=1$ tenglama bilan aniqlangan sirt ***elliptik silindir*** deb ataladi. Uning yasovchisi *oz* o'qiga parallel, yo'naltiruvchisi yarim o'qlari *a* va *b* bo'lgan *xoy* tekislikda yotuvchi ellispdan iborat. Xususiy holda *a=b* bo'lsa to'g'ri doiraviy silindirga ega bo'lamiz. Uning tenglamasi $x^2+y^2=a^2$ ko'rinishda bo'ladi (3-chizma).



3-chizma

2. Ushbu

$$\frac{x^2}{a^2} - \frac{z^2}{b^2} = 1$$

tenglama bilan aniqlangan silindrik sirt ***giperbolik silindir*** deb ataladi. Bu sirtning yasovchi *oy* o'qqa parallel, yo'naltiruvchi esa *oxz* tekislikda joylashgan, haqiqiy yarim o'qi *a* va mavhum yarim o'qi *b* ga teng bo'lgan giperboladir (3-chizma).

1. Ushbu $y^2=2pz$ tenglama bilan aniqlangan silindirk sirt ***parabolik silindir*** deb ataladi. Bu sirtning yasovchisi *ox* o'qqa parallel bo'lib yo'naltiruvchisi esa paraboladan iborat bo'ladi (4-chizma).



4-chizma.



5-chizma.

<u>Esltama.</u> Bizga ma'lumki, fazoda to'g'ri chiziq ikki tekislikning kesishishdan hosil bo'ladi. Xuddi shuningdek fazoda egri chiziq ikki sirtning kesishish natijasida hosil bo'ladi va u ikki *F(x;y;z)=0, f(x,yz)=0* tenglamaning berilishi bilan aniqlanadi.

Masalan, S aylana $z=3$ tekislik va $x^2+y^2+z^2=25$ sirtlarning kesishishi natijasida hosil bo'ladi va u

$$\begin{cases} z = 3 \\ x^2 + y^2 + z^2 = 25 \end{cases} \qquad (1)$$

sistema orqali beriladi.



6-chizma

Ikkinchi tomndan, bu aylana $z=3$ tekislik va $x^2+y^2=16$ silindirik sirtlarning kesishish chizig'i deb ham qaralishi mumkin. Bu holda S aylana

$$\begin{cases} z = 3 \\ x^2 + y^2 = 16 \end{cases} \qquad (2)$$

sistema orqali beriladi. Ko'rinib turibdiki, (1) va (2) sistemalar teng kuchlidir.

Sirtlarning shakli va ulchamlarini o'rganishda ularni koordinat tekisliklariga parallel tekisliklar bilan kesish va keimda hosil bo'lgan chiziqlarning koordinata tekisliklariga proyeksiyalarni qarash muhim ahamiyatga ega.

1.3.2-a. Frontal so'rov uchun savollar

1) Sirt nima?
2) Ikkinchi tartibli sirtning umumiy tenglamasini yozing?
3)) $(x-a)^2+(y-b)^2+(z-c)^2=R^2$ tenglama ikkinchi tartibli sirtmi?

1.3.2-b. Blits-so'rov uchun savollar

1. paraboli silindr nima.
2. geperbolik silindr nima.

1.3.2-v. Og'zaki so'rov uchun savollar

1. **Ikkinchi tartibli sirtning A,B,S koeffisiyentlarining o'zgarishiga qarab xosil bo'ladigan sirtlarning nomlarini ayting.**
2. **Analitik geometriyaning birinchi masalasi buyicha qaysi ikkinchi tartibli sirtni tenglamasini keltirib chikarish mumkinmi.**

1.3.3. Mustaqil ish uchun topshiriqlar

- *takrorlash va mashqlar*: takrorlash, o'z-o'zini tekshirish, tahlil, qayta ishlash, mustahkamlash, eslab qolish, chuqurlashtirish;
- *yangi materiallarning mustaqil o'zlashtirish*: yangi adabiy va internet materiallar, konspekt qo'shimchasi; mustaqil iboralar tuzish;
- *ilmiy xarakterdagi ishlar*: muammoli holatlar, testlar, savollar, topshiriqlar tuzish; topshiriqlarni bajarish.

1.3.4. Kartochkalar uchun testlar

1.3.5. Tavsiya etilgan adabiyotlar

Asosiy

1. Vilenkin N.Ya. va boshš. Matematika. –M.: Prosveщyeniye. 1985.
2. Rajabov F., Nurmetov A. Analitik geometriya va chizišli algebra. –T.: O'qituvchi. 1990.
3.A.V.Pogorelov. Analitik geometriya. –T.: Œšituvchi. 1983.
4.Shneyder, A.I. Sluskiy, A.S.Shumov. Kratkiy kurs vishiey matematiki. –M.: Visshaya shkola. 1972.
5.Ilin V.I., Poznyak E.G. Analiticheskaya geometriya. –M.: Nauka. 1988.
6.Ibroximov M. Matematikadan masalalar tœplami. –T.: Œšituvchi 1994.

Qo'shincha adabiyotlar

7.Šabulov V.Š. Rašamli avtomatlar, algoritmlar. –T.: Œšituvchi, 1980.
8.Vlenkin N.Ya. Zadachnik-praktikum po matematike. –M.: Prosveщyeniye. 1977.
9.Ochilova X., Nazarov N. Geometriyadan masalalar tœplami. –T.: Œšituvchi, 1983.
10. Shodiyev T. Analitik geometriyadan šœllanma. –T.: Œšituvchi, 1973.
11. Postushenko A.S. Vыsщaya matematika. –M.: Vыsщaya shkola, 2002.
12. Beklemishev D.V. Kurs analiticheskoy geometrii i lininoy algebrы. –M.: Fizmatlit, 2000.

1.4. O'qitish usullari qoidalari

1.4.1. Aqliy hujum qoidalari

- Hech qanday o'zaro baholash va tanqid;
- Taklif etilayotgan g'oyalarni baholashdan o'zingni tiy, hatto ular fantastic va iloji yo'q bo'lsa ham – hammasi mumkin;
- Tanqid qilma – hamma aytilgan g'oyalar birhirda;
- Bayon qiluvchi gapini bo'lma;
- Izoh berishdan o'zingni tiy;
- Maqsad bu - miqdor;
- Qancha g'oyalar ko'p bo'lsa chuncha yaxshi: yangi va zarur g'oya tug'ulishi imkoniyati ko'proq
- Agar g'oyalar takrorlansa o'ksinma,
- Tasavvuringga erk ber;
- Senda yaralgan g'oyalarni tashlama, agal ular sening nazaringda qabul qilingan sxemaga tegishli bo'lmasa ham;
- Bu muammo aniq usullar bilan yechiladi deb o'ylama.

1.4.2. "Insert" texnikasi qoidalari

- Matndi o'qib, ularda savollat tug'dirayotgan joylarni, ularni bilimlariga mos kewlayotgan va mos kelmayotgan joylarni qalam bilan belgilab qo'yiladi;
- "Insert" jadvalini quyidagi belgilashlar bilan to'ldirish:

Agar «!» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki siz o'ylagan fikrga to'g'ri kelayotganini o'qiyapsiz;
Agar «–» bo'lsa siz o'z bilimingizga yoki tyo'g'ri deb o'ylaganingizga mutlaqo zid bo'lganini o'qiyapsiz;
Agar «+» bo'lsa siz o'qityotganingiz siz uchun yangilik;
Agar «?» bo'lsa, siz o'qiyotganingiz siz uchun tushunarsiz yoki siz bu savolga yanada ko'proq ma`lumotlar olishni istaysiz.

1.4.3. Guruhlarda ishlash qoidalari

- Hamma o'z do'stlarini tinglashi kerak, unga yaxshi munosabatda bo'lib hurmar ko'rsatishi kerak;
- Hamma aktiv harakat qilishi lozim; berilgan topshiriqqa nisbatan birgalikda va javobgarlik bilan ishlashi kerak;
- Har kim o'ziga kerak paytda yordam so'rashi kerak;
- Har kim undan yordam so'ralganda yordam ko'rsatishi kerak;
- Guruhning ish natijalarini baholashda ishtirok etishi lozim;
- Biz bir kemadamiz, o'zgalarga yordam berib o'zimiz o'rganamiz, shuni har kim tushunishi lozim;

Mavzu 19. Ellipsoid, giperboloid va paraboloid

Ma`ruzaga reja-topshiriqlar

Fan: Analitik geometriya va chiziqli algebra

O'quv soati: 2 soat (ma`ruza);

O'quv mashg'uloti turi: ma`ruza; yangi bilimlarni mustahkamlash va o'rganish.

Ma`ruza rejasi:

1. Ellipsoid.

2. Giperboloid.
3. Paraboloid.

O'quv mashg'uloti maqsadi:

O'quv fani to'g'risida umumiy ta`surotlar berish, vektorlar va keyinchalik kasbiy faoliyatidagi roli.

O'quv mashg'uloti vazifasi:

13. *O'rgatuvchi*: talabalarda qabul qilish faoliyatini tashkil qilish, yangi materialni boshlang'ich esda qoldirish va anglash; Analitik geometriya va chiziqli algebra fanning terminlari, iboralarini xarakterlovchi elementlar; talabalarning matematik fikrlashini rivojlantirish muammoli masalalarni yechimini mahoratini oshirish fanni o'ganishda matematik simvollarning hususiyatlari bilan tanishtirish;
14. *Rivojlantiruvchi*: kitob matni bilan ishlay bilishligi – mag'zlarini tanlab olish, tahlil qilish; hulosa chiqarish, materialni talabalarning izlash faoliyatini stimullashtirish; hususiydan umumiy holga o'tish usuli bilan tekshirish; tekshirish natijalarini tahlil qilib va uni umumlashtira olishini rivojlantirish; analitik-sintetik faoliyatning mantiqiy fikrlashini qo'llash; talabalarning ijodiy mahoratini shakillantirish;
15. *Tarbiyalovchi:* aktiv faoliyatga, mustaqil ishga jalb qilish; guruhlarda ishlash qoidalariga rioya qila olish; fanni o'rganishga qiziqishni rivojlantirish; fanning matematik-komunikativ kursni bir qismi sifatida tassavur berish; javobgarlik tuyg'ularini tarbiyalash, mehnatsevarlik, individual ishni jamoaviy ish bilan biriktirish, intizomlashtirish.

O'qitish texnologiyasi:

- *O'qutish usullari*: instruktaj; Ma`ruza, aqliy hujum, "Insert" texnikasi;
- *O'qitish shakillari*: frontal; jamoaviy;
- *O'qitish vositalari*: Ma`ruza matni; jadvallar, multimediya;
- *O'qitish sharoitlari*: texnik jihozlashtirilgan auditoriya;
- *Baholash va monitoring*: o'g'zaki savol-javob, blits-so'rov.

Pedagogik masalalar:

- Fanning masalalari va uning o'quv fanlar stemasidagi o'rni va roli bilan tanishtirish;
- O'quv fanning tuzulmasi va tavsiya etiladigan o'quv-metodik dabiyotlarni tasvirlash;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlarini ochib berish, baholash shakli va muddatlari;
- Fan ma`ruzasi paytida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy bosqichlarini xarakterlab berish va umumiy sxemasini tushuntirish.
- O'qitish texnologiyasi rivojlanishi perspektivasini xarakterlab berish;

O'quv faoliyati natijalari:

- Fan ma`ruzasi masalalari, maqsadlari va nomlari shakillanadi;
- Oily matematika doirasidagi yutuqlar yoritiladi;
- Fan sohasida metodik va tashkiliy xususiyatlari hamda baholash shakli va muddatlari aytiladi
- Fan ma`ruzasida o'qitish jarayonini tashkil qilishning umumiy sxemasini kengaytirib xatakterlab beradi;
- Fanning asosiy ta`riflarini beradi, oily matematika fani ma`ruzalarining asosiy yo'nalishlari beriladi;
- Nazariy bilimlarning to'liqligi, sistemaliyligi va harakatliyligi;
- Amaliy mag'ulotlarni bajarishda o'rganilgan iboralarbilan ishlay olishligi;

- **1.2. Ma`ruzaning xronologik xaritasi**

1 bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: tayyorgarlikni tekshirish (davomat, konspektning borligi; o'ziga ishonch, aniqligi,); kerakli materiallarni tarqatish (konspekt, tarqatma materiallar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadini bayon qilish; o'quv mashg'ulotning rajasi bilan tanishtirish; kalit iboralar va so'zlar, kategoriyalar; internet saytlari va adabiyotlar ro'yhati; o'quv natijalari haqida aytish;
- *Talabalar faoliyati*: o'quv joyini tayyorlash (talabalar borligi; tashqi ko'rinish; o'quv materiallar va qo'llanmalar); ma`ruzaning mavzusi va maqsadi bilan tanishish; o'quv materialini qabul qilishga tayyorgarlik ko'rish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: instruktaj; frontal so'rov; mustahkamlovchi so'rov.

2 bosqich. Asosiy qism (60 daqiqa):

- *O'qituvchining faoliyati*: mavzuga kiritadi; yangi mavzuga doir o'tgan fanlar va mashg'ulotlarning mavzularini eslashga chorlaydi; ma`ruza matnini tarqatadi, tanishishni taklif etadi, "Insert" usuli bilan belgilar qo'yishni taklif etadi; birinchi savol bo'yicha matn o'qiladi; qo'shimcha o'quv materiallarini aytib boorish va tushuncha berish; natural obektlarni namnoyon qilish va izohlash; tushunarsiz savollarni aniqlash va tushintirish; birinchi savol bo'yicha nazar (shunday qilib qolgan savollarga ham);
- *Talabalar faoliyati*: yangi mavzuda doir oldingi mashg'ulotlarda va fanlarda olgan bilimlarni mustahkamlaydi,; har bir kalit ibora va terminlarni eshitib, yozib borib, konspekt qilib aytib borishadi; "Insert" usuli bilan belgilan o'qiydilar, aniqlik kiritadilar, savollar beradilar va o'zaro;
- *Shakillar, usular, uslublar*: frontav so'rov blits-so'rov; aqliy hujum, "Insert" texnikasi.

3 bosqich. Yakunlovchi qisim (10 daqiqa)

- *O'qituvchining faoliyati:* mnavzu bo'yicha hulosa qilish, talabalarning e`tiborlarini asosiylarda jalb qilish; qilingan ishning muhimligini aytib o'tish; alohida talabalarning bajarilgan ishlarini baholash; o'zaro baholashning natijalarini chiqarish; o'quv mashg'ulotning yutuqlik darajasini baholash va tahlil qilish; mustaqil ish uchun topshiriqlar; baho ko'rsatgichlari va me`zonlari;
- *Talabalar faoliyati: ishning* tahlili; natijalarni olish; texnologik bilimlarni qo'llash; o'zaro baholashni o'tkazish, yo'l qo'yilgan hatolar bo'yicha tahlil va aniqlik kiritish; mustaqil ish topshiriqlarini yozib olish;
- *Shakillar, usular, uslublar*: guruhlarda ishlash, kartochkalarda topshiriqlar.

1.3. O'quv-metodik materiallar

Ma`ruza rejasi:

1. Ellipsoid.
2. Giperboloid.
3. Paraboloid.

Kalit so'zlar: Nukta, jism, konus, silindr, turtburchak parallelogram, aylana, sfera, ellips, giperbala, parabola.

1.3.1. Ma`ruza matni
Ellipsoid.

To'g'ri burchakli Dekart koordinatalar sistemasida

$$\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}+\frac{z^2}{c^2}=1 \qquad (1)$$

tenglama bilan ifodalanadigan sirt ellipsoid deyiladi. a,b,c ellipsoidning yarim o'qlari deyiladi. Agar a,b,c lar bir-biriga teng bo'lmasa (1) uch o'qli ellipsoid deyiladi. Agar $a=b=c$ bo'lsa (1) dan markazi koordinata boshida va radiusi $R=a$ bo'lgan sfera hosil bo'ladi.

(1) tenglama bilan berilgan ellipsoidni shaklini va ba'zi geometrik xossalarini aniqlaylik:

1. (1) bilan

$$Ax^2 + By^2 + Cz^2 + 2E_1xy + 2E_2xz + 2E_3yz + 2A_1x + 2B_1y + 2C_1z + F = 0$$

ni sollishtirsak ellipsoid ikkini tartibli sirt ekanligi kelib chiqadi.

2. (1) da uchta musbat sonni yig'indisi birga tengligida $\frac{x^2}{a^2} \le 1, \frac{y^2}{b^2} \le 1, \frac{z^2}{c^2} \le 1$ yoki $x^2 \le a^2, y^2 \le b^2$, $z^2 \le c^2$ bu tengsizliklardan

$$-a \le x \le a, \ -b \le y \le b, \ -c \le z \le c \qquad (2)$$

Demak ellipsoid chegaralangan sirt bo'lib, kirralari $2a, 2b, 2c$ to'g'ri burchakli parallelepiped ichiga joylashgan figuradan iborat.

3. (1) va (2) dan ko'rinadiki, agar (1) dagi qo'shiluvchilardan birortasi birga teng bo'lsa, kolgan ikkitasi nolga teng bo'lishi kerak. Masalan: $\frac{x^2}{a^2} = 1$ bo'lsa $x = \pm a$, $y = 0$, $z = 0$, bo'ladi va (1) ellipsoid OX o'qini $A_1(a;0;0)$, $A_2(-a;0;0)$ nuqtalarda kesib o'tadi. Xuddi shuningdek (1) ellips OU o'qini $B_1(0;b;0)$, $B_2(0;-b;0)$, OZ o'qini esa $C_1(0;0;c)$, $C_2(0;0;-c)$ nuqtalarda kesib o'tadi.

4. Endi (1) ellipsoidni koordinata tekisliklari bilan kesishishidan hosil bo'ladigan chiziqlarni aniqlaymiz:

a) Ellipsoidni XOY tekislik bilan kesaylik. Bu holda $\begin{cases} \frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1 \\ z = 0 \end{cases}$ yoki $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$, ya'ni XOY tekislikda yarim o'qlari a va b ga teng bo'lgan ellips hosil bo'ladi.

v) Endi ellipsoidni XOZ tekisligi bilan kesak $\begin{cases} \frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1 \\ y = 0 \end{cases}$ yoki $\frac{x^2}{a^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1$, bu esa XOZ tekislikda yarim o'qlari a va c ga teng bo'lgan ellipsdir.

s) Endi YOZ tekislik bilan kessak $\begin{cases} \frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1 \\ x = 0 \end{cases}$ yoki $\frac{y^2}{b^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1$, bu esa YOZ tekislikda yarim o'qlari b va c bo'lgan ellips tenglamasidir.

5. Endi (1) ellipsoidni koordinata tekisliklariga parallel tekisliklar bilan kesganda hosil bo'ladigan chiziqlarni o'rganamiz:

a) Ellipsoidni XOU ga parallel $z = h$ tekislik bilan kesaylik $\begin{cases} \frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} + \frac{z^2}{c^2} = 1 \\ z = h \end{cases}$ yoki $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1 - \frac{h^2}{c^2}$. Bu yerda quyidagi uch xil bo'lishi mumkin:

a) $-c < h < c$ bo'lsa $1 - \frac{h^2}{c^2} > 0$ bo'lib $\frac{x^2}{a^2(1 - \frac{h^2}{c^2})} + \frac{y^2}{b^2(1 - \frac{h^2}{c^2})} = 1$ tenglamaga ega bo'laymiz, bu esa $z = h$ tekislikda markazi $(0;0;h)$ nuqta bo'lgan ellips tenglamasidir.

v) $h = c$ yoki $h = -c$ bo'lsa $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 0$ bo'lib $x = 0, y = 0$ bo'ladi. Demak $z = \pm c$ tekisliklar $(0;0;c)$ va $(0;0;-c)$ nuqtalarda ellipsoidga o'tkazilgan urinma tekislikni ifodalaydi.

s) $h > c$ yoki $h > -c$ bo'lsa $1-\frac{h^2}{c^2}<0$ bo'lib, $\frac{x^2}{a^2}+\frac{y^2}{b^2}<0$ bo'lib, ya'ni tekislik ellipsoid bilan kesishmaydi.

Xuddi shuningdek XOZ va YOZ tekisliklarga parallel bo'lgan tekisklar bilan ellipsoidning kesishuvini tekishirib tahlil kilsak ellipslar hosil bo'lganini ko'ramiz.

